

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT

UNIVERSITETI

KASBIY TA'LIM FAKULTETI

“TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI” kafedrasи

Sohibova Dilfuza Sa'dullayevna

“Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvirdan bosqichli portret ishslash metodikasi (Keksa ayol portreti misolida)”

**5110800-Tasviriy san'at vamuhandislik grafikasi(bakalavriat) ta'lif
yo'naliishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilm. maslahatchis.f.n.dots. Jo'rayev H.

ILMIY RAHBAR: o'qt. Xoliqov J.

Malakaviy bitiruv ishi “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrasida bajarildi. kafedraning 2016 yil ____ maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomma №____)

Kafedra mudiri:

Sh.Oydinov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2016 yil ____ iyundagi majlisida himoya qilindi va ____ ball bilan baholandi (bayonnomma №____)

YaDAK raisi: _____

A'zolari: _____

Kirish.....	4
I.Bob. Ixtisoslashgan mакtablar qalamtasvirdarslarida o'quvchilarni portret janrda rasm ishslashga o'rgatishning nazariy asoslari.	
I.1. Adabiyotlar tahlili.	
I.2. Mustaqillik davridagi portretchilik san'ati	
I.3. Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirida portret janrida ishlangan asarlarnin tahlil qilishning ahamiyati.....	
II-Bob.Ixtisoslashgan mакtablarqalamtasvirdarslarida portret kompozitsiyasini yaratishning amaliy asoslari.	
2.1.Portret janrda rasm ishslash bo'yichaqalamtasvir fanidan darsni tashkil qilish prinsiplari.....	
2.2. O'quv qalamtasvirining maqsad va vazifalari.....	
2.3.Qalamtasvirdan "Keksa ayol kishi" portretini chizish bosqichlar.....	
Umumiy xulosa.....	
Foydalanilgan abdiyotlar.....	
ILOVALAR.....	

Kirish

Vatanimizda mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlarning muhim yo'nalishi hisoblangan ta'lim tuzimini rivojlantirishga qaratilgan ishlar tizimida yoshlarimizda milliy tarbiyamizga xos sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlar ham alohida o'rinn tutadi.

Maqsadga erishishda ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar uslublarni joriy etish ta'lim tarbiya mazmuni modernizatsiya qilish muhim bosqich sanaladi.

Shuningdek ta'limda bir qator ijodiy o`zgarishlar yuz bermoqda, yurtimizda bunyod etilgan san'at maktablari san'at kollejlari bunga misol bo'la oladi, hamda ta`limni amaliyot bilan bog`lash, bundan tashqari, fan yutuqlari ishlab chiqarishga qo`llash ilgari surmoqda. Ta`lim jarayonidagi ilg`or pedagogik texnologiyalarini qo`llanilishi, shu bilan bir qatorda ta`lim samaradorligini oshirishda muammoli ta`lim metodidan foydalanish innovatsion texnologiyalarni qo`llash bilan o`quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga yaqindan yordam berishi tabiiydir. Bajariladigan har bir bitiruv malakaviy ish talaba uchun ilk bor ilmiy ijodiy izlanishga qadam qo`yish demakdir.

Biz bu bitiruv malakaviy ishimizda San'at maktablari qalamtasvirdarslarida O'zbekiston xalq rassomi R. Temurovning portret asarlari va ularning tahlili, ijodini tahlil qilib o'rganib chiqishga, portret chizishdaranglar bilan ishslashning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy-uslubiy tarzda ochishga harakat qildik. Buning uchun mavzumiz bo'yicha malakaviy bitiruv ishimizni bajarish jarayonida Respublikamiz nashriyotlarida chop etilgan darslik o`quv-uslubiy qo`llanmalarni o`qib, o`rganib, tahlil qilib bitiruv malakaviy ishimizni maqsad va vazifalarini isbotlashga kirishdik.

Muammoning dolzarbliji. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham qalamtasvirdarslarining muhim bo'g'ini bo'lgan portret janrda rasm ishslash mashg'ulotlarini olib borish, uning o'ziga hos jihatlari aniq bir mashg'ulot misolida yoritilib berishga harakat qilindi. Ixtisoslashgan

maktablarqalamtasvirdarslarida qalamtasvirdan portret janrda rasm ishslash mashg'ulotlari o'z mazmuniga ko'ra bir necha turga bo'linadi va bu darslarni o'qitish ma'lum murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun mahg'ulotlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ixtisoslashgan maktablarida qalamtasvurfani mazmunini aniqlash, o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quv jarayoniga tadbiq etish, o'quv materialining mazmuni va tuzilishining mukammaligi o'quvchilar saviyasiga mosligi ilmiy bilish jarayonida faolikni kuchaytiradi va pedagogik samaradorlikni oshiradi.[“]Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvirdan bosqichli portret ishslash metodikasi (Keksa ayol portreti misolida)” mavzusi ham dolzarb muammolardan biri bo'lib, u ta'limda yangicha usullarni ishlab chiqish va samarali foydalanishni taqoza qiladi. Mazkur malakaviy ish ana shudolzarb muammoni hal qilishga qaratilgan.

Muammoni o'r ganilganlik darajasi: O'zbekistonning milliy tasviriy san'ati ayniqsa rangtasvir san'atining shakllanishi XX asrning boshiga to'g'ri keladi. Turkistonda-Toshkentda va Samarqandda qisqa vaqt ichida (1918-1919 yillarda) ikki badiiy bilim yurtlari tashkil etildi Nikolay Rozanov, Povel Benkov, Ogenes Tatevosyan, F.Urimstev, Leonid Bure va boshqa rus rassomlari o'zbek yosHLarining baddiy Kasb-hunar kolleji va studiyadagi dastlabki ustozlari bo'lgan edilar. Ular o'z shogirdlariga o'zbek badiiy madaniyatining eng yaxshi an'analarini singdirib bordilar.

Turkistonda birinchi badiiy maktablarning ochilishi o'zbek xalq san'atining rivojlanishida yangi bir sahifa bo'ldi.

1916 yilda Toshkentda rassom A.Volkov umumiyl o'rta ta'lim maktablarida, Toshkent o'qituvchilar instituti, Oliy pedagogika kursi, temir yo'l bilim yurtida rasmdan das berdi.

XIX asr oxirida Toshkentdag'i Evropacha ta'lim maktablarida rasm va chizmachilik darslari o'tilgan. Bu ushbu hudud va badiiy ta'limi uchun o'ziga xos

yangilik edi. Masalan I.Kazakov real bilim yurtida S.Yudin kadet kursida dars bergan. Mohir akvorelchi-portretchi P.Nikiforov esa 1912 yilda Farg'ona badiiy bilim yurtlarida rasm va chizmachilikdan saboq bergan.

O'zbekistonda XX asr boshlarida rassomchilik maktablari, studiyalar, texnikumlar ochildi. 1918 yilda Samarqand rassomchiliik Kasb-hunar kollejii tashkil etildi. 1919 yilda esa S.Yudin, I.Kazakov, Z.Chernavskaya tashabbusi bilan Toshkentda Turkiston Xalq rassomchilik Kasb-hunar kollejii ochildi. Unda S.Yudin, I.Kazakov, A.Volkov, A. Isupov kabi taniqli rassomlar dars berdi. Bu Kasb-hunar kollejining o'quvchilari orasida A.sidiqiy, Ruziev va boshqalar bor edi.

1949 yilda Turkiston xalq rassomchilik maktablari, rassomlik bilim yurtiga aylantirilib, unga P.Benkov nomi berildi (hozirgi rassomlik kolleji). Ushbu bilim yurti Respublikada badiiy ta'limdi ravnaq topishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchchi jahon urushi yillarida Rossiyadan O'zbekistonga minglab kishilar, jumladan ko'plab rassomlar ham ko'chib keldi. Bu paytda Toshkentda yuqori malakali pedagoglar jamoasi mavjud edi. Ushbu fakultetda O'rta Osiyoning qo'shni respublikalaridan va kavkaz o'lkalaridan yoshlardan kelib o'qirdi.

TTRI, rassomlik fakultetining yuksak malakali professor o'qituvchilari bo'lg'usi rassomlarni mustaqil ijodiy ishlashga o'rgatadigan salohiyatga ega edilar. Bu erda taxsil olganlar ichida dunyoda taniqli rassomlar etishib chiqdi. O.Tatevasyan, V.Urmanchi, A.Goldrey, M.Saidov, I.Limakov, S.Abdullaev, G.Brim, V.Ritim, T.Retnikova, E.Kallatorov, I.Rubin, V.Kovinin, V.Nechaev, Ch.Axmarov, N.Shin, I.Enin, V.Jmakin, V.Sosedov, I.Yurovskiy, V.Parshin, K.Basharov, I.Chirichshenka, Yu.Kiselyov, N.Quzibaev, R.Axmedov, A.Yarova, N.Auchieva, M.Raxmov, L.Rempel, L.Shostko, R.Toqtosh, V.Lakovskaya, R.Tachirova, I.Bulkina kabi taniqli rassom-san'atshunoslar O'zbekiston rassomlarining bir necha avlodini tarbiyalashga munosib hissa qo'shib keldilar.

1997 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning farmoni bilan Toshkent san'at instituti (avvalgi TTRI) rassomlik fakulteti bazasida Kamoliddin

Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti (MRDI) tashkil etildi. Ushbu institut O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimiga kirdi.

Bitiruv-malakaviy ishda ko'rileyotgan muammo ilgari ham har tomonlama o'rganilib chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan. Masalan, bu muammolar yechimi S.Abdirasilov, B.Boymetov, N.Tolipov tomonidan 2006 yilda chop etilgan "Tasviriy san'at" o'quv qo'llanmasida, Rahim Hasanovning Qalamtasviro'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" kabi qo'llanmalarida atroflicha ishlab chiqilgan. Ammo bu mavzu doirasida, xususan, umumiy o'rtta'lim maktablari qalamtasvirdarslarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash hali to'liq ishlab chiqilmagan. Malakaviy ishda ana shu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari taklif qilingan. Bular, tasviriy san'atdan portret janrda rasm ishlash mashg'ulotlari mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish uslubiyotining o'ziga xos tomonlari tadbiq qilinganligidir.

Mavzuning maqsadi. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda qalamtasvirdan "Keksa ayol misolida" bosqichli kartina ishslash haqida umumiy tushuncha berishni, portret ishslashning usullarini bayon etishni va portret chizishning o`ziga xos texnika va vositalariga doir bir nechta misollar keltirishni o`z oldimga maqsad qilib qo'yaman.

Mavzuning vazifalari. Mavzuni bajarishda quyidagilarni amalga oshirish vazifasi qo'yildi:

- tasviriy sanatning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish;
- portret kompozitsiya bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va o'rganish;
- Ixtisoslashgan maktablar qalamtasvir jumladan qalamtasvir fanlari mazmun va mohiyatini o'rganish;
- Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir fanini o'qitishning zamonaviy metodlarini o'rganish va tadqiq qilish;

- mashur rassomlarnining mavzu yuzasidan tajribalarini o'rganish;

Bitiruv malakaviy ishning obe'kti. Ixtisoslashgan maktablarqalamtasvir darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning tadbig'iga asoslangan va o'qitish usullari va metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan o'quv jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Qalamtasvirdan bosqichli portret ishslash mashg'ulotlarini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish yo'llariga bag'ishlangan o'quv materiallari mazmuni, shakli va tanlash tamoyillari.

Bitiruv malakaviy ishning qo'llanilgan metodlar va uning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", umumiy O'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturilari, Prezident I.A. Karimovning ta'lif tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan nutqlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ishini bajarishda olib boriladigan tadqiqotimizning imiy yangiligi shundaki, unda Ixtisoslashgan maktablarida o'tiladigan qalamtasvir darslari, xususan "Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvirdan bosqichli portret ishslash metodikasi (Keksa ayol portreti misolida)" mashg'ulotlarini an'anaviy va noananaviy usullardan foydalangan holda olib borishning samarali yo'llari ishlab chiqilmoqda va tavsiya qilinmoqda. Bundan tashqari portret janridagi "Keksa ayol" mavzusida bosqichli rasm ishslash mashg'uloti butunlay yangi bo'lgan eskizlar asosida ijodiy ishlab chiqilmoqda. Ishlab chiqilgan metodlar amliyotda sinab ko'rilgan va undan ixtisoslashgan maktablar qalamtasvirfani o'qituvchilari, shu sohada ta'lim olayotgan o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

- Ixtisoslashgan maktablar o'quvchilariga ta'lim berishda portret janrda rasm

ishlash mash'gulotiga qo'yiladigantalablarni asoslash;

-Ixtisoslashgan maktablari qalamtasvir darslarida portret janrda rasm ishslash mash'gulotlarini olib borishmetodikasoslarininingilmiy-amaliyishlab chiqilishi;

-Ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarini tayyorlashda portret janrda rasm ishslash mashg'ulotlarini olib borishningsamaralishaklavositalariniishlabchiqilishi;

-Ixtisoslashgan maktablarda portret janrda rasm ishslash mash'gulotlarini olib borishni jarayonidao'quvchilarlarningegallahshlarilozim bo'lganbilim,ko'nikmavamalakalarinibolahashningko'rsatkichvamezonlari ishlab chiqilishibilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ajriba-sinov ishlari (2015-2016yillar):pedagogiktadqiqotlarniyanada faollashtirish, muhim xulosala chiqarish tajriba-sinov maydonlaridashakllantiruvchitajriba-sinovishlarini libborishvao'tkazish,bitiruv malakaviy ishi mazmunigaaniqliklarvaqo'shimchamateriallarkiritish,tajriba-sinovishlarinatijalariniuslubiytavsiyanomalar,ishlanmalarvailmiymaqolalardayorit ish, tajriba-sinovishlarinatijalarimatematik-statistikmetodiorqaliqaytaishlab chiqish,ishlabchiqilganmetodikabo'yichaolingannatijalariumumlashtirish, bitiruv malakaviy ishi holiga keltirishva himoyaga olibchiqish belgilangan.

Bitiruv-malakaviy ishning qo'llanilish sohasi; Ixtisoslashgan maktablar qalamtasvir darslarida portret janrda rasm ishslash mashg'ulotlari jarayoni.

Bitiruv-malakaviy ishning hajmi. Ish kirish, ikkita bob, olti bo'lim, umumiylar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan va ilovalarda iborat.

I.Ixtisoslashgan maktablar qalamtasvirdarslarida o'quvchilarni portret janrda rasm ishslashga o'rgatishning nazariy asoslari.

I.1. Adabiyotlar tahlili.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997. 19 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:Sharq, 1997.32-63 b. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi, shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyasi va talablari asosida jahon ta'limi standartlariga muvofiq keluvchi uzlusiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan bin sifatida e'tirof etilgan.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. Ushbu adabiyotda ma'naviyat tushunchasi, insonning ichki dunyosi, bugungi kunda insonlarda ma'naviy mafkurani shakllantirish, Sharq mutafakirlarining ma'naviyatni shakllantirish borasidagi fikrlari, mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlar, oilaning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda oila, mahalla va maktabning ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Ushbu adabiyotdan portret janrda rasm ishslash orqali biz maktab o'quvchilarining manaviy dunyoqarashlarini rivojlantirish borasidagi fikr va mulohazalarimizda foydalanishga harakat qildik.
4. Ixtisoslashgan maktablarida qalamtasvirdarslarini ilmiy va ijodiy yo'nalishda olib borilishi lozim. O'quvchilarga ilmiy yo'nalishda ta'lim berish uchun sana't tarixiga oid bilimlarga o'qituvchi ega bo'lishi lozim. Shuningdek bitiruv malakaviy ishining birinchi bobini yoritishda, tasviriy san'atda portret janr tarixi va rivojlanish bosqichlarini ochib berishda ushbu adabiyotlardan unumli foydalandik N. Abdullayev. N. Abdullayev San'at tarixi. T-1987 y. San'at tarixi. T-2001 y. N.

5. Hasanov R.H. Qalamtasvirasoslari. Toshkent. Gofir G'ulom nomidagi nashiryot matbaa – ijodiiy uyi 2009 -y. R.Hasanovning qalamtasvirasoslari deb nomlangan asari 1966 yilda chop etilgan O.K. Apuxtinning “Qalamtasvirasoslari” nomli kitobidan tubdan farq qiladi. Bu asarda tasviriy san’atning tarixiy rivojlanishi qisqacha aytib o’tilgan. Tasviriy san’atning tur va janrlari batafsil yoritilgan va yangi janrlar ham qo’shib aytildi. Portretlar, rassomlarning ijodi qisqacha aytib o’tiladi. Yaxshi reproduksiyalar bilan bezatilgan va izohli lug’atga ham e’tiborini qaratgan. Adabiyotdan biz bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida portret janr, va unda ijod qilgan turli rassomlar ijodiy faoliyatlarini yoritishda foydalandik.

5. Raxmetov S. “Dastgohli rahgtasvirda kompozisiya asoslari”.T., 2007 y. Ushbu adabiyot rangtasvir to’garaklari mashg’ulotlarini olib borishda kompozitsion yechim topishda keng foydalaniladi. Shuning uchun biz bu adabiyotni yetarlicha tahlil qildi, o’rgandik. Raxmetovning dostgohli rangtasvirda kompozisiya asaslari asarida alohida bizning mavzumizga doir joylar bor. Chunki portretchilik san’atining o’zi kompozisiya bilan bog’lanib boradi. Shuning uchun ham portretchi rassomlarning ijodiga tuxtalib o’tilgan. Portret janrining mohiyati ochib berilgan. Ko’p ma’lumotlarni olish mumkin.

6. Mustaqillik davri portret janrda ijod qilayotgan rassomlar haqida qisman malumotlarni birinchi bobda yoritish uchun quyidagi adabiyotdan foydalandik. O’zbekiston san’ati. Avtorlar jamoasi. T.: Uzbekiston. 2001. O’zbekiston tasviriy va amaliy san’ati haqida keyingi o’n yilliklarni o’zida mujassam etuvchi kitob hisoblanadi. Tasviriy san’atning mustaqillikdan keyingi rivojlanishidan ajoyib satrlar keltirib o’tadi. Juda ko’p turli allomalar, rassomlar, davlat arboblarining portretlari haqida ma’lumotlar beriladi.

7. Taniqli san’atshunos Abduvali Egamberdiyevning rus tilida nashr etilgan “Janrovaya jivopis O’zbekistana” nomli kitobida Yu. Taldikinning “Bog’larda bahor” (1993) manzara kartinasining mukammal kompozitsion echimi va oldingi plandagi qiyg’os gullagan daraxtlar va go’zal rang koloritini e’tirof etgan.

8. Portret janrda rasm ishlashda bevosita manzara janriga ham murojat qilinadi. Yurtimizda manzarachi rassomlar yetakchisi O' tansiqboyev va uning hayoti haqida o'quvchilarga ma'lumot bermasdan bo'lmaydi. Shu maqsadda biz quyidagi adabiyotni lozim topdik va tahlil qildik. Taniqli san'atshunos olimlar N. Ahmedova va R. Toqtoshlarning, manzarachi akademik rassom O'. Tansiqboyevga bag'ishlab chiqarilgan monografiyalarida musavvirning ilk ijodidan boshlab taniqli asarlar yaratgungacha bo'lgan hayoti va ijodiy izlanishlari yorqin ta'riflanadi. Yuqorida qayd etilgan industrial manzara misolida "Qayroqqum GESi tongi" asari tugal kompozitsiyasi bilan diqqatga sazovordir.

10. R. Hasanov. "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" T-“Fan” 2004 yil. Ushbu adabiyotdan biz asosan maktabda qalamtasvirdarslarini tashkil etish va ularning faoliyatini olib borish borasidagi fikirlarni tahlil qildik, va portret janrda rasm ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishda keng foydalandik.

Shuningdek biz bitiruv malakaviy ishini yoritishda quyidagi adabiyotlarni ham yetarlicha tahlil qildik, o'rgandik. . B. Jabbarov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati. N-2001 y, N.Normatova Tasviriy san'at atamalari lug'ati. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi. T-1998 y, B. Tojiboyev. Rangtasvir fanidan ma'ruzalar matni. T-2000 y.

Tasviriy san'atda portret janr jozibali va qiziqlarligi bilan ajralib turadi. Uni o'zlashtirish, hatto uni idrok qila bilish ham muayan tayyorgarlikni talab qiladi. M. Nabiyevning "Rangshunoslik", B. Boymetovning "Qalam tasvir", B. Boymetov va N. Tolipovning Maktabda qalamtasvirto'garagi, S. Uralovning "Mo'jiza yaratish san'ati", N. Oydinovning "Rassom-oqituvchilarini tayyorlash muammolari", D. A. Nazilovning Kompozisiya asoslari kabi adabiyotlarini o'rganish ushbu muammolarning yechimiga sabab bo'ladi.

I.2. Mustaqillik davridagi portretchilik san'ati.

Insoniyat tashqi dunyoni tasvirlashga intilishi juda qadim zamondan ma'lum. Ibtidoiy davrdayoq odamlar mamont suyaklarida, g'orlarda tashlardagi chizgilarda mahoratga erishganlar. Ular hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Ularning tasviriy san'at namunalarini tasodifiy emas, balki ko'p yillik mehnat tajribasining natijasi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Kishilarda atrof muhitni undagi tirik mavjudotlarni jumladan odam va hayvonlar tasvirini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlari yuzaga kelishlari sababli anatomik jihatdan unchalik aniq bo'limgan suratlarni chizishdilar. Bular tosh va boshqa yuzalarga o'yib bajarildiki hozirda ham bu tavirlardan namunalar bizgagacha etib kelgan. Shu tariqa odam qiyofasi tasvirlash yani portretini yaratish kun sayin shaklana borib taraqqiy eta boshladi.

Portret - eng qadimgi janrlardan biri. Fayyum shaharchasida rang-tasvirning mum usulida bajarilgan g'oyat go'zal portretlari topilgan. Bu asarlar eramizning I-III asrlarida qadim Misrda yaratilgan. Fayyum portretlari yorqin hayotiy obrazlar ekanligi' shaklning yorug'-soyali hajmiy model asosida bajarilganligi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari Mahmud Muzahhib, Qosim Ali va boshqalar rangtasvirning miniatyura usulida samarali ijod qilganlar.

O'zbek xalqining mohir musavvirlari Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabihev, Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Sobir Rahmetov, Bahodir Jalolov kabilar buyuk allomalar va portret janrida zamondoshlarimiz siymolarini yaratganlar va yaratib kelmoqdalar.

Portret janri O'zbekistan rangtasvirchilarining kuchli jihatlaridan biri hisoblanadi.O'zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, T.Oganesov, V.Burmakin kabi portret ustalari jahonda keng tan olinganligi e'tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta'siri ularoq, san'atning

turli yo'nalish va uslublarida erkin ijodga yo'l ochildi. Jumladan portret janrida ham.Buning natijasida portret zamonaviy badiiy jarayonida yetakchi bo'lib qoldi. Respublikamizning yetakchi badiiy oliygoxi K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida aynan, realistik maktab asosida o'quv mashg'ulotlari olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik janrida ijod etgan o'tmish ijodkorlarimizning boy merosini tan olinganligi, shuningdek, jahon san'ati ilg'or tajribasini chuqur o'rganishdan dalolat berib, butun dunyoda avangard yo'nalish bilan bir qatorda, aynan, realistik yo'nalish rivojiga e'tibor bilan karalganligini ko'p jixatdan namoyon etadi.

1990 yillarda o'zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi, yetakchi portretnavis, akademik A.Abdullayev ham ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Butun umri davomida u iste'dodli va ma'naviy go'zal insonlarga hurmatini saqlab qoldi. Musavvirmo'yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma'naviy dunyosini akslantiruvchi, rassom bilan portret qahramoni va portret bilan tomoshabin o'rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatni taqozo etuvchi manbadir. 1999 yilda A.Abdullayevning 1984 yilda yaratilgan mashhur avtoportretini turli davr va xalqlarga mansub buyuk rassomlar avtoportretlari saqlanayotgan dunyoning yirik to'plami, Uffisidagi (Italiya) kartina galereyasiga berilishi O'zbekiston san'ati uchun olamshumul voqyea bo'ldi. Yakin davr (2001)da esa musavvir "Ofarin" respublika sovrinining "San'atga bahshida umr" nominasiyasi bilan taqdirlandi.

Akademik R.Ahmedov o'z portretlarida epik kenglik va teranlikka erishadi. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari bo'lib, aynan, ularda musavvir donishmanlikni, ma'naviy poklikni, yuksak ahloqiy qoidalarni gavdalantiradi ("Jizzaxlik ayol", 1992; "Nigina" 1993). Zamondoshlar obrazlari akademik R.Choriyevni ham qiziqtiradi vao'ziga jalb etadi. Ko'p sonli ijodiy safarlar natijasida, musavvirning butun boshli portretlar galereyasi vujudga keladi.Ular orasida "Boysunlik qariya", (1996), "Sayroblik go'zal" (1997) singari o'z xalqining eng yaxshi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi murakkab kompozision yechimdagagi portretlari sanab o'tiladi.Rangtasvirchi R.

Choriyevning kuchli jihatni shundaki, u doimo naturadan ishlaydi. Biroq, umumlashma obrazlar yaratishda rassom har doim ham muvaffaqiyatli oxanglarga erisha olmaydi. 2000 yil Mustaqillik kuniga bag'ishlangan ko'rgazmasida namoyish etilgan "Mening zamondoshim" polotnosi bir qator badiiy tanqidchilar tomonidan e'tirofga uchradi.

Ajoyib rangtasvirchi A. Ikromjonovning ilk ishlarida realistik asos kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning portretlari yuksak mahorat va diqqat bilan ishlanganligi, buyoqlarning fakturali qo'yilishi, naturani, xatto, fotosuratgacha taxlil etib chizilganligi, shuningdek, obrazning ruhiy to'laqonliligi ("Malika portreti" (1993), "Madina" (1993)) bilan ajralib turadi.

O'z ohanglari va mo'yqalamiga ishonch bilan yondasha olgan R.Xudoyberganovning portretlari ham kishini befarqqoldirmaydi ("Xojar xola", 1999). Avvalgi ustalar uslubini qo'llagan holda musavvir hyech qanday yordamchi vositalarsiz, to'qfonda portretlar yaratadiki, ular qahramon qiyofasini yanada mukammalroq chiqishida yetakchilik qiladi. Uning ajoyib badiiy asarlaridan biri "Navro'z-2001" ko'rgazmasida namoyish etilgan "Bastakor R.Abdullayev portreti" dir.

Keyingi yillar ko'rgazmalarda O'zbekistonning mashhur rangtasvirchi rassomi V.Burmakin portretlari munosib joy oldi. Lekin, musavvirning avvalgi ishlariga qiyoslagan tarzda, 90-yillarda yaratgan portretlarini bir muncha sust ekanligi tanqidchilar tomonidan ta'kidlanadi.

Onalar va bolalar yili munosabati bilan tashkil etilgan "Qo'li guldir o'zbek ayolin" ko'rgazmasiga bir qator ayol portretchi rassomlar: A.Mamatova "Yulduz Usmonova portreti", Sh.Abdullayevaning "Uzbek madonnasi", M.Shuvayevaning "Lola" portreti, Z.Sharipovanining "Avtoportret"lari namoyish etildi. V. Shevchenko O'zbekistonning chegara



himoyachilari turkum I. Ibroximov, Sh. Rasulov, R. Shonazarovlar portretlarini yaratadi.

Portretchi rassomlar sonini yuqorida ta'kidlab o'tganlar bilan chegaralab bo'lmaydi. Ular qatorida o'z matolarida zamondoshlarimiz obrazlarini muhrlagan Y. Tursunnazarov, B. Salomov, I. Baxromov, Ch. Bekmirov, M. Nuridsinov, O. Bakirov, B. Nazarov va boqalarni sanab o'tish lozim.

Shu o'rinda yana bir portretni, ya'ni rassom Aziza Mamatovaning "Xalq artisti Bernora Qoriyeva portreti" ni ko'rib o'tish o'rinnlidir. Taniqli balet raqqosasi o'ziga xos kompozision yechimda tasvirlangan. Balkonning bejirim panjarasiga bir qo'lini qo'yib erkin xolatda o'tingan bo'lsada, yana bir qo'lida yengil yelpig'ich, ustidagi mayin mato libosi balet san'atining nozikligi, nafisligidan dalolat beradi. Yana shunisi ham e'tiborni tortadiki, raqosaning odatiy o'tirishining omonatligi oyoq uchlarining raqs paytida uzatilganidek yetga tegizmay, muallaq xolatda tasvirlanishi san'atkordagi dinamika, xarakatchanlik va jushqinlikni ifodalashga xizmat qilgan. Orqa fondagi yam-yashil bog'lar tabiat go'zalligi, saxovati va inson va tabiat munosabatlari haqida muloxaza qilishga chorlaydi.

Bahodir Jalolov (1948.27.5, Toshkent) — rangtasvir ustasi, O'zbekiston xalq rassomi (1992), O'zbekiston (1997) va Qirg'iziston (1998), I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik in-tini tugatgan (1974). Toshkent teatr va rassomlik san'ati in-tida o'qituvchi (1974—80); 1997 y.dan Milliy rassomlik va dizayn in-tida mahobatli rangtasvir ustaxonasi rahbari, prof. (2000). O'zbekiston rassomlari uyushmasi boshqaruvi raisi (1987—92). Ijodini portretlar yaratish b-n boshlagan.

Portretlarida kishilarning kasbi haqida tasavvur beruvchi holatlar aks ettirilgan, ijodiy mehnat jarayoni, chuqur psixologik holat mahorat b-n ko'rsatilgan («Me'mor», 1972; «Masxaraboz Akrom Yusupov», 1974; «Avtoportret», 1975; «Kulol ayol. Xalq ustasi Hamro Rahimova», 1975; «Soniya va mangulik. O'rol Tansiqboev xotirasiga», 1977; «Porloqerta. Rassom Sh. Abdurashidov xotirasi», 1980; «Tiklash. Xalq ustasi Muhiddin Rahimov», 1980). 70-y. larning oxiri — 80-y.larning boshlaridan mahobatli rassomlik sohasida samarali ijod qiladi: Qarshi

musiqali drama teatri binosiga, «Chimyon» sanatoriysi oshxonasi foyesiga (1981), Toshkentdagi Kinochilar uyiga (1982) ishlagan devoriy rasmlari rassomni betinim izlanayotgan, o’ziga xos uslub yaratgan rassom sifatida tanitdi. «Bahor» konstert zali foyesiga ishlangan «Raqsning tug‘ilishi» (1982), Qashqadaryo viloyati Tallimaron nasos stanstiyasi klubi devoriga (1983), Qo’qon teatri foyelariga (1987), Tojikistonning Xo’jand sh.dagi maktab binosiga (1988), Belgiyaning Kortreyk sh.dagi «Kortreyk 200» (1990), Toshkentdagi Turkiston saroyiga («Umar Xayyom tushlari», 1993) va b.ga ishlangan devoriy rasmlar, manzaralar («Isfarada bahor», «Tog‘ qishlog‘i. So’qmoq», «Eski Gurzuf ko’chasi» va b.), kitoblarga yaratilgan illyustrastiyalar (Navoiy, T. Tula, U. Nosir va b. asarlari), dastgoh kartinalari («Afg’iston — 83», «Afg’iston tongi» va b.) muallifidir. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti lauriyati.

Nabiev Malik 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog.100-rasm.O’zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O’zbekiston halq rassomi.O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi.

Malik Nabiev tasviriy san’atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o’rgangach, ustoz maslaxatiga ko’ra 1933 yilda rassomlik bilim yurtiga o’qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatganidan so’ng shu erda o’qituvchilik faoliyatini boshlaydi.1962 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogik instituti badiiy-grafika fakultetini tugatgan.O’sha yillarda uning san’at borasida mustaqil ijodiy faoliyati boshlangan edi. Rassom urushning og’ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, urush orqasidagi mehnat bilan g’alabani yaqinlashtirishga harakat qildi.

Rassom o’z faoliyati davomida tarixiy shaxslar portreti, tarixiy voqealarini tasvirlashga juda qiziqar edi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan ijodkor o’zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar obrazini yuksak badiiy saviyada yarata oldi. Ular amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al

Roziy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarining obrazlaridir.

Ana shnday asarlardan bari 1962 yilda yaratilgan Zaxriddin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish maqsadida rassom ko'p yillar davomida izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan joylarda-Andijon, Samarqand, shaharlarida va Afg'oniston, Xindiston kabi shaharlarda bo'ldi. Bobir haqida yaratilgan mo'jaz rangtasvir asarlari bilan tanishdi.

Rassomning ko'p yillik tinimsiz mehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti olqishlarga sazovor bo'ldi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e'lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi. Bu portret YuNESKO ning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarining ko'pgina jurnal va gazetalarida ham berildi.

M. Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan "Amir Temur portreti" asosiy o'rinni egallaydi. Bu asarda yozish istagi 1941 yilda soxibqiron go'ri ochilib uning kalla suyagi olingani hamda bu asosda Amir Temurning xaykalini rus xaykaltaroshi M.Gerasimov tomonidan ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan edi deb eslaydi rassom. Sohibqironning bo suyagini tarix muzeyida o'z ko'zi bilan ko'rgan M.Nabiev uning portretini ishlashga kirishgan edi. 102-rasm.

Buyuk shaxsni portretini ishlash qanchalik ma'suliyatli va murakkab bo'lганligini bilgan rassom bunga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Xindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Franstiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lган mo''jaz rangtasvir asarlarini u xaqda yaratilgan ko'plab adabiyotlarni o'rgandi.

Oxir oqibatda davlat arbobi, harbiy qo'mondan obrazini realistik tarzda zo'r maxorat bilan yaratishga muvaffaq bo'ldi.

1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur obrazi uchun e'lon qilingan tanlovdan M.Nabievning bu chuvrati bosh mukofatga sazovor bo'ldi.

Rassomning tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo'lgan halq qo'zg'olonlari mohiyati ochib beriladi.M.Nabiev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Uning ana shunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi ozodlik uchun kurash haqidagi "Spitamen qo'zg'oloni" suvratidir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga "Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni", "Jizzax qo'zg'oloni" kabi ishlarni kiritish mumkin.

M.Nabiev na faqat rassom mohir pedagog, ustoz va etuk murabbiy hamdir. U 1960 yildan boshlab ko'p yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy-grafika fakultetida kafedra mudiri va professor sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Rassom maktab, bilim yurtlarining o'qituvchilari, o'quvchilar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining natijasi kitob shaklida chop etilgan.

Ijodkorning sermaxsul ijodiy faoliyati xukumat tomonidan munosib taqdirlanib, unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan.

I.3. Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirida portret janrida ishlangan asarlarnin tahlil qilishning ahamiyati.

O'zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A.Abdullaev, R.Ahmedov, R.CHoriev, T.Oganesov, V.Burmakin kabi portret ustalari jahonda keng tan olinganligi e'tirof etildi. Bu rassomlar asarlarni tahlil qilish o'quvchilarda bilim va ko'nikmani rivojlantiradi. Portret asarlarini tahlil qilish orqali o'quvchilar bu asarda qanday g'oyalar olinga surilayotganligi, uning ishlanish texnologiyasi bilan tanishadi. Asar haqida mustaqil fikir yurita oladi.

O'zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi, etakchi portretnavis, akademik A.Abdullaevning qalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqurma'naviy dunyosini akslantiruvchi, rassom bilan portret qahramoni va portret bilan tomoshabin o'rtasida haqiqiy va ochiq munosabatni taqozo etadi. 1999 yilda A.Abdullaevning 1984 yilda ishlangan mashhur avtoportretini turli davr va xalqlarga mansub buyuk rassomlar avtoportretlari saqlanayotgan dunyoning yirik to'plami, Uffitsidagi (Italiya) kartina galereyasiga berishi O'zbekiston san'ati uchun olamshumul voqeа bo'ldi. Bu asar orqali rassom o'z ichki olamini to'la to'kis bo'yoqlar orqali ochib bera oldi. Asar yuksak badiiy namuna sifatida san'atshunoslar tomonidan qadirlanib kelinadi.

R. Chorievning esa «Boysunlikqariya» (1996) kabi o'zbek xalqining eng yaxshi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi murakkab kompozitsion echimdagи portretlari yaratildi. Bu asarda rassom zahmatkash o'zbek kishisi qiyofasini to'laqonli ochib bera oldi. Bu asar orqali o'quvchilar yaqin o'tmishimiz, va manaviyatimiz, vatanparvarligimiz haqida tushunchalarga ega bo'ladi. Ajoyib rangtasvirchi A. Ikromjonovning ilk ishlarida realistik asos kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning portretlari yuksak mahorat va diqqat bilan ishlanganligi, bo'yoqlarning fakturali qo'yilishi, naturani, hatto, fotosuratgacha tahlil etib chizilganligi, shuningdek, obrazning ruhiy to'laqonligi («Malikaportreti» (1993), «Madina» (1993) bilan ajralib turadi.

Rassom R. Hudoyberdievni portretlari ham kishini befarq qoldirmaydi. («Xajaxxola») (1999). Avvalgi ustalar uslubini qo'llagan holda musavvir hech qanday yordamchi vositalarsiz, to‘q fonda portretlar yaratadiki, ular qahramon qiyofasini yanada mukammalroq chiqishida etakchilik qiladi.

S. Raxmetovning keyingi yillarda yaratgan eng yaxshi portretlari qatorida «Yunus Rajabiy portreti» (1993), «GFRning O‘zbekistonidagi elchisi G.Kunportreti» (1999) alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayol rassomlar A. Mamatovaning «Yulduz Usmonova portreti», SH. Abdullaevaning «O‘zbekmadonasi», M. Shubaevaning «Lola» portreti, Z. Sharipovaning «Avtportret»lari ham shu davrlarda yaratilgan.

Portretchi rassomlar qatorida o‘z matolarida zamondoshlarimiz obrazlarini muhrlagan Y.Tursunnazarov, B.Salomov, I.Bahromov, CH.Bekmirov, M.Nuriddinov, O.Bakirov, B.Nazarov va boshqalarni ham sanab o‘tish mumkin.

Yuqoridagi ijodkorlar va portret asarlari yurtimizda juda ko’plab topiladi. Bunday rassomlar ijodini o’rganish va asarlarini tahlil qilishda quyidagi bilimlarni o’zlashtirish talab etiladi.

Tabiat, jamiyat, insoniyat turmush tarzini, xarakterini bilishda bo’yoqlar benihoyat katta ro’l o’ynaydi. Ranglar hayotdagi har bir holatni ko’rish xarakterini ochib beribgina qolmay uning sir-u asrorlarini ifodalab beruvchi ishonchli vositadir. Ana shuning uchun ham rangtasvir tasviriylar san’atning o’ziga xos alohida bir turi hisoblanib unda barcha janrlarga oid asarlar imkoniyati mavjud. Manzara, natyurmort, portretlarni rangda bajarish boshqa vositalardagi tasvirlardan tubdan farq qilib o’zining rang barang jozibasi bilan kishini maftun etish kuchiga ega. Biz kunlik ijodiy faoliyatimizda ishlatajigan rang va bo’yoqlarning o’ziga xos xususisiyatları mavjud. Tabiatdagi ranglar o’z xususiyatiga ko’ra iki turga : axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo’linadi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o’zaro aralashtirilganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo’shsak, uning jozibaliligi pasayib,


nursizlanadi. Buhol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda, kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori, ko'k, binafsharanglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatса, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi. Och va to'q fonda odam boshini ifodalash mashqining asosiy maqsadi yirik tus munosabatlarini to'g'ri topa bilish (fon va naturaning o'zaro bog'liqligi urg'u bergen holda) dan iborat. Mashqni bajarish uchun naturaga to'g'tridan yorug'lik tushgani ma'qul. Shunday qilinganda qo'yilmada yorug' soyalarining keskin holati bo'lmaydi. Fon boshga nisbatan ba'zan och, ba'zan to'q bo'lishi mumkin. Bu mashg'ulotning asosiy metodik ahamiyati shundaki, bosh va fondagi yurik munosabatlarini aniqlashga qaratilgan. Rangtasvir san'atini mukammal egallash uchun uning dastlabki bosqichlaridan boshlab puxta tayyorgarlik olib borish lozim bo'ladi. Bu borada naturani (oq va qora, jigar rang, ul'tramarin) ranglar tusida tasvirlash maqsadga muvofiq.

Qalamtasviryo'nalishida o'qiyotgan o'quvchilarning ixtisosliklik fanlaridan biri rangtavir hisoblanadi. Bu san'atdan ham amaliy mashg'ulotlarda saboq olishadi. Ular bu fanning dastlabki mashg'ulotlarida naturaning o'ziga qarab rasm chizish mashqini amalga oshiradi. Naturani qog'oz yuzasiga qora qalamda joylashtirib bo'lgach, narsalarni akvarel bo'yog'i bilan ranglashga kirishib har bir narsaning materialligi, hajmi, tus munosabatlarini ranglar orqali hal qilishga o'tiladi. Naturani tashkil qiluvchi buyum va narsalar turlicha ranglarda, turli xil materiallardan yasalgan bolishi mumkin. Shuning uchun ularga tushayotgan yorug'lik va soyalar ham bir - biridan farqlanib turadi. Bularni tasvirlashda esa rangtasvirdan boshlang'ich ta'lim olayotgan talaba uchun ancha qiyinchilik tug'ilishi tabiiydir. Bunday hollarda tasvirlashning grizayl usuli bizga qo'lli

keladi. Grizayl usulu deb naturani bir tusdagi bo'yoqda tasvirlashga aytildi. Bu usuldan nafaqat natyurmort chizishda hattoki tasviriy san'atning boshqa janrlarida rasm chizishda ham foydalanish mumkin. Jumladan portret chizishni olsak, bu jarayonda ham xuddi shunday odam qiyofasini hajmdorligini ko'rastish uchun unga tushayotgan yoruglik, soya tufayli yuz elementlaridagi farqlarni, chuqurlik va bortgan joylarni korsatish mumkin bo'ladi. O'quvchilarda grizayl usulidagi mashqlarni bajarish, ranglarga o'tish oldidan bo'ladigan tajribalarini shakllantirishda juda muhumdir.

Grizayl bir qarashda qalamtasvirga o'xshab ketadi lekin ular o'rtasida ancha tafovut mavjud. Qalamtasvirda narsalar yuzasi va ularga tushayotgan yoruglik va soyalar strixlar vositasida ishlanib narsalarning hajmi, materialligi va o'zaro joylashivu, nisbatlari ko'rsatib berilishi kerak bo'ladi. Qo'yilmani grizayl texnakasida bajarishning afzallik tomonlaridan biri shuki, ko'pincha rangtasvir asarlarining aksariyati tabiiy yorug'lik holatida chiziladi. Grizayl usulida esa bu jarayonni ikki holatda ham tabiiy, ham suniy yorug'lik asosida bajarish mumkin.

Naturani tasvirlashda boshqa tasvirlash vositalariga o'xshab grizayl usulida ham narsalarning joylashuv o'rni (planlilik) havo va chiziqli pespektiva elementlariga ham to'liq amal qilinadi. Bundan tashqari narsalar hajmdorligini ko'rsatish, ulardagи tasvir elementlari blik, refleks, narsadagi xususiy soya va tushayotgan yorug'lik – soyalarni ifodalash talab etiladi.



Narsaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotida qo'yilmani rangtasvirdagi tus munosabatlari to'g'ri tasvirlash ijodkorning asossiy vazifasi hisoblanadi. Naturadagi narsa va predmetlar rangtasviridagi tus va ranglarning o'zaro birligi qo'yilmani bor butunligicha tasvirlashda muhim factor bo'lib hisoblanadi. Odam qiyofasi va


nayurmort detallarini grizayl texnikasida yaxshi ishlay bilish rangtasvirdagi ijodiy faoliyatda samarali natijalar beradi. Grizayl texnikasidagi mashqlar umumiy tus munosabatlari to'g'ri topa olishdan iborat. Bu holatlarda fon va naturaning o'zaro bog'liq bo'lgan jihatlariga urg'u berish orqali amalgam oshiriladi.

Masalan odam qiyofasini tasvirlash mashqlarida rassom avvalom bor ob'ektning siluetini fonga solishtirib topib oladi, keyin esa mayda detallardagi refleks, yarim soya va soyalarni aniqlaydi. Umuman har qanday tasvirlash jarayonida naturadagi yirik tus munosabatlarini ko'rish va to'g'ri ifodalash hamda undagi mayda detallarni ishlashga o'tiladi.


Abdulhaq Abdullayev" Shoir Habibiportretini"

O'quvchilarga rangtasvir san'atini mukammal o'zlashtirishlari uchun qo'llanilayotgan usullar, ishslash texnikalari, metodlardan foydalanishni keng'lga o'yish ijodiy faoliyatni samarali bolishini ta'minlaydi.

Abdulhaq Abdullayev "Shoir Habibi portretini" yaratishga qo'l urar ekan o'zbek tasviriy san'atida yana bir bir portret janridagi mukammal asarning dunyoga kelishi va uning tomoshabinlarga manzur bo'lishiga sazovar bo'ldi. Portretda shoirning keksalik chog'ida ham ijod bilan mashg'ul ekanligi zo'r mahorat bilan ifoda etilgan. Uning tashqi qiyofasidagi liboslarning milliylikka xos bo'lgan ko'rinishi, yuzidagi o'ychanlik va quvonchning qo'shilib ketishi, yelkasidagi to'nning yarashib tirishi nuroniylarga xos chehrasi ajinlaming ko'pligi qarilik alomatlarini ko'rsatib turganligi portretga ma'no bag'ishlab turibdi. Stol ustidagi yopinchiq va qog'ozlar, tokchadagi kitoblar portretga yanada bezak berib turibdi.



Rahim Ahmedovning “Ona o’ylari” asarini kuzatar ekanmiz portretdagи milliy kiyimdagи o’zbek ayoli siymosini ko’ramiz. Uning o’ychan holati ya’ni o’z farzandlarining kamoli va ularning taqdiri, kelajakdagи hayoti haqida o’y surayotgandek tuyulsada, ona obrazida uning qadoq qo’llari, mehnatkash jussasi hayotdagи sabr toqat matonatni ifodalab turibdi. Atrofdagi manzara oddiygina o’zbek xanodoni qariyib ona yoshiga teng kelgulik ulkan daraxt hamda yoshi keksaysada qaddini bukmagan baland qoyali tog’ tasviri ifoda etilgan. Onaning mana shu yoshida izzat ikrom bilan daraxt soyasida ko’rpachada otirib va yostiqqa suyangan holati keksalik yoshlaridagi ezozda bo’ladigan ota onalarimizni tasviriga o’xshab ketadi.



Ozbekiston xalq rassomi A.Abdullayev tomonidan yaratilgan yana bir asar “Mehnat qahramoni Nazarali Niyozov” portreti haqida so’z borganda mehnatkash inson hayotda yaratuvchanlik ishqisi bilan yashayotgan mag’rur ko’ksi ordenlarga to’la qahramon dehqon obrazi ko’z o’ngimizda gavdalanadi. Rassom asar kompozitsiyasini juda ustakorlik bilan tuzgan va uni amalda ifoda etishga muvaffaq bo’lgan. Asar qahramonining mag’rur nigohi hali baquvvat, o’zini bundan keyin ham ko’plab ezgu ishlarga qodir ekandek tutishi tomoshabinga g’urur va iftixor bag’ishlaydi.

I bob bo'yicha xulosalar.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Ixtisoslashgan maktablar qalamtasvirdarslarida o'quvchilarni portret janrda rasm ishlashga o'rgatishning nazariy asoslari, hamda ushbu bitiruv malakaviy ishi yuzasidan adabiyotlar o'rganildi. Tegishli adabiyotlarda mavzu haqida bildirilgan fikirlar o'rganilib ular haqida mulohazalar yuritildi.

Mustaqillik davri portretchilik san'ati haqida fikirlar bayon qilindi. Yurtimizda yashab ijod qiligan va ijod qilib kelayotgan portretchi rassomlar hayoti va ijodiy faoliyati o'rganildi. Yurtimizda portretchilik san'atining rivojlanishi va mustaqillik davri portretnavislik san'ati haqida ma'lumotlar berildi.

Portretchi rassomlar M. Nabihev va B. Jalolovlar ijodiy faoliyatiga chuqr to'xtanildi.

Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirida portret janrida ishlangan asarlarnin tahlil qilishning ahamiyati o'rganildi. Yuksak portretchilik san'ati namunalari tahlil qilindi.

II- Bob. Ixtisoslashgan maktablar qalamtasvir darslarida portret kompozitsiyasini yaratishning amaliy asoslari.

2.1. Portret janrda rasm ishlash bo‘yichaqalamtasvir fanidan darsni tashkil qilish prinsiplari

Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir fanidan yetarlicha bilim beriladi. Bu fan o‘zining portret janrda rasm ishlash mavzusini o‘qitish metodikasi deganda ta’lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo‘l va uslublar yig‘indisi tushuniladi. Mashgulotni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish esa o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ham bog‘liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy yo‘llar bilan, oddiydan-murakkabga borish prinsipida ma’lum ketma-ketlikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq qilib aytganda, o‘qitish metodikasi to‘g‘ri tanlanganda o‘quvchilar ko‘zda tutilgan o‘quv materialini puxta o‘zlashtiradilar va ularda o‘zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo‘ladi.

Metodika so‘zining o‘zi ikki xil bo‘ladi: ular umumiylar va xususiy metodika hisoblanadi.

Umumiylar metodika maktabda olib boriladigan barcha ta’lim-tarbiya ishlariga, xususiy metodika esa u yoki bu o‘quv predmetiga nisbatan qo‘llaniladi. Metodika, ko‘pincha pedagogika, psixologiya va san’atshunoslik, estetika sohasidagi nazariy xulosalarga tayanib ish ko‘radi.

Pedagogik nazariyada uch xil metod bo‘lib, asosan nutqiy, namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o‘z o‘rnida mayda metodlarga ham bo‘linadi. Masalan, nutqiy metod hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishslash v.b. shu kabi metodlardan tashkil topadi.

Ko‘rgazmali metod esa kuzatish, namoyish etish kabilardan, amaliy ish esa mashq, rasm ishslash, ijodiy ish, o‘yin kabi metodlarga bo‘linadi. O‘qituvchilar faoliyatida «uslub» degan so‘z ham ishlatiladi. «o‘qitish uslubi» deb biz o‘qitish metodlarining ayrim qirralarini tushunamiz. «O‘qitish uslublaridan» o‘qitish metodi tashkil topadi.

Masalan, «namoyish etish» metodi asosida o‘qituvchi mashg‘ulot o‘tkazganda, u ekranga san’at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi suratdagi biron shaklni yirik qilib ko‘rsatishi usul hisoblanadi. Shu o‘rinda ekranagi surat tasviri yuzasidan savol-javob o‘tkazilganda xam bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u rangshunoslik, perspektiva, yorug‘soya, kompozitsiya qonunlari va ularning xususiyatlardan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki, tasviriy san’atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o‘rgatganda yoki, tasviriy san’atning u yoki bu faoliyat turini o‘qitganda o‘qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O‘qitish metodikasining tarixi juda uzoqlarga ya’ni kishilar qachon bir-birlariga rasm chizishni o‘rgata boshlagan paytlariga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib borgan, davr o‘gishi bilan o‘qituvchilar, olimlar uning yangidan-yangi qirralarini ochganlar va u mutaxassislar orasida tarqalgan.

Shuni ham qayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bo‘lsa-da, uni bir o‘qituvchi, ikkinchi o‘qituvchidan o‘rganib, shundayligicha qo‘llayvermaydi. Uni har bir o‘qituvchi o‘z mакtabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusi uning o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olipsh lozim. Shunga ko‘ra boshqa o‘qituvchi qo‘llayotgan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o‘qituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi xam mumkin.

Shuning uchun qo‘llashga mo‘ljallangan har bir metod pedagogik faoliyat davomida tajriba-sinovdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiqsir. Sinov bir marta emas, bir necha marta o‘tkazilishi lozim bo‘ladi. Chunki, bir sinfga mo‘ljallangan bir metodika boshqa vaqgda yuqorida qayd qilinganidek, sharoitga qarab boshqa sinfda boshqacha natija berishi mumkin. Tanlangan va qo‘llanib kelinayotgan har bir metod shaklan o‘zgarmay qolsa ham, mazmunan o‘zgarishi ham mumkin. O‘qituvchining to‘xtovsiz izlanishlari, tajribalari asosida uning yangidan-yangi qirralari ochilaveradi. Mutaxassislar orasida tasviriy san’atni o‘qitish metodlariga turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh mutaxassislar o‘qitish metodlari yagona tizim, yagona talablarga

javob berishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikrlariga qaraganda, har bir metod jamiyat taraqqiyoti dayumida shakllanib bo'lgan, uni o'zgartirmasdan shundayligicha qo'llash lozim. Boshqa guruh mutaxassislarining fikrlariga qaraganda o'qitish metodining asosini har bir o'qituvchining shaxsiy ish tajribasi tashkil etishi kerak. Bizningcha, masalaga bunday yondoshish to'g'ri emas. Ta'lif-tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi, u doimo taraqqiy etadi. Bunda o'qituvchining tajribasi albatga, katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, pedagogik amaliyotda sinfdagi shart-sharoitlarni hisobga olib, shakllangan metodika asosida xam, o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalanaverish lozim.

O'qituvchi o'qitish metodikasini ish jarayonida o'z-o'zidan egallayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o'tkazishi, ko'p adabiyotlar o'qishi, ilg'or tajribalarni o'rghanishi hamda ulardan tegiishi xulosalar chiqarishi asosida paydo bo'ladi. SHuningdek, u jamiyat taraqqiyoti davrida shakllangan o'qitish metodlarini tanqidiy nuqqai nazardan taxlil etishi va uni zamon ruhiga moslashtirgan holda qayta ishlashi asosida namoyon bo'ladi.

XVII-XIX asrlarda umumiyoq o'ita ta'lif maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodlarini takomillashtirishda chet el pedagoglaridan Jon Lokk, Jan Jak Russo. Iogani Genrix Pestalotssi, Peter Shmidt, A.Sapochnikov, G.Gippius, N.Kramskoylar katta hissa qo'shgan bo'lsalar, XX asrda rus pedagog-olimlaridan E.S.Kondaxchan, G.V.Labunskaya, N.N.Rostovsev, V.S.Kuzin, E.E. Rojkovalar, O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish metodikasini oyoqqa turgazishda rassom-pedagoglardan M.Nabiev, B.Oripov, D.Qosimov, B. Azimovalarning xizmatlari katta bo'ldi.

Ixtisoslashgan maktablarida qalamtasvir darslarini didaktik prinsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta'lif va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin. Didaktik prinsiplar va ularning asosiy masalalari Evropaning buyuk pedagog-olimlari Ya. Komenskiy, J.J.Russo, I.G. Pestalotsilar tomonidan ishlab chiqilgan. SHuiingdek, didaktik prinsiplarni ishlab chiqishga F.A.Disterverg va

K.D.Ushinskiylar ham katga hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.

Didaktik prinsiplar hisoblangan ta'lif v tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta'lif mazmunini o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi kollejda qalamtasvirfanini o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir fanini o'qitishda didaktik prinsiplar professorlar N.N.Rostovsev, V.S.Kuzin, R.Hasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan va taobiya birligi tamoyili didaktik prinsdiplarning eng asosiyalaridan hisoblanadi va bu tasviriy san'atni o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bugungi kunda ta'lif-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

Qalamtasvir darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va xalqdar hayotini ifodalovchi suratlarning reproduksiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

«Onam portreti», «Mening oilam », «Ustozim » mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, do'stlik tu-shunchalarini singdirishga harakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suhbatlar, turli millat va xalklarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillnshuvi-ga, tasavvurlarining boyishiga olib keladi.

Qalamtasvir darslarida millatlararo do'stlik, totuvlik respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o'zbek xalqining hayoti va mexnati, uning boshqa xalqlar va millatlar bilan totuvligi, ba'zi chet xalqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko'rish mumkin.

Shuningdek, qalamtasvirdasturiga bir qator Sharq va G'arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o'rganish ham kiritilgan. Leonardo da Vinci, Rafael, Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Pikasso, Matiss va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik g'oyalarini amalga oshirishda boy

material bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me’morchiligin o‘rgatish ham nazarda tutilgan. O‘qituvchi bunday san’at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o‘ziga xos xamda umumiy belgilarini ta’kidlab o‘tishi maqsadta muvofiq.

O‘quvchilar qalamtasvir fanidan “Keksa ayol portreti” mavzusidagi portret janrdagi kompozitsion asarni yaratishni o‘rganish orqali o‘zbek xalqining halol mehati va mehnatdagi jonbozliklari, milliy an’analari, odatlari, turmush tarzi hamda tabiat bilan oshno bo‘ladilar.

Jamiyat qurilishining muvaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga bog‘liq. Shuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo‘lgan mehnatga nisbatan hatti-harakati asosiy ko‘rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi.

Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir darslarini o‘quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katga. Bu masala qalamtasvir darslarining barcha turlari - naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, qalamtasvir asoslari mashg‘ulotlari mazmunida ko‘zda tutilgan.

Naturaga qarab tasvirlash jarayonida o‘quvchilar turmushda qo‘llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, fakdt buyumlar shakli, proporsiyasi, rangi va tuzilishi haqida-gina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi.

«Keksa ayol portreti» kabi mavzularda rasm chizdirish o‘quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ijodiy jarayonda o‘quvchilar kishilarning qanday mehnat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo‘llari bilan tanishadilar, kattalar mehnatining natijalarini ko‘radilar.

Rassomliklik yo‘nalishidagi ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir fani estetik turkumdagi o‘quv predmeti hisoblanib, o‘quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muxim rol o‘ynaydi, ya’ni qalamtasvirdarslarida san’atdagi va borliqdagi go‘zallikni ko‘rish, tushunish va qadrlay olish hissi takomillashadi.

Borliqni idrok etish va qalamtasvir va kompozitsiya darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish o‘quvchilar ekologik tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shox-shabalarning shakl va yo‘nalishini turli-tumanligi, barglarning rangi va shakli, nafisligi va yoqimliliginib bilib oladilar. Shuningdek. gullarning rangi va shakli, xilma-xilligi, bahor va kuz manzarasining gashti, ninachi, kapalak, qushlarning engil va nafis parvozi ham o‘quvchilarni hayajonlantiradi.

“Keksa ayol portreti” mavzusidagi badiiy saviyada yaratilgan qalamtasvirasarini o‘rganishda o‘quvchilar undan estetik zavq olishadi. Surat kompozitsiyasining muvaffaqiyatli kechishi, tuslarning hamohangligi, borliqning haqqoniy tasviri o‘quvchilarni hayajonlantiradi. Bu faqat estetik tarbiyaga taalluqligina bo‘lmay, balki o‘quvchilarning tasviriy ijodiga, ularning san’atga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashga bevosita aloqadordir. Bu borada maishiy janrlarining roli kattadir. Kompozitsion asari haqidagi suhbatda o‘qituvchi, bo‘lajak rassom ko‘rganini shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki u borlikdagi eng qiziq, eng chiroyli narsa va hodisalardan ta’sirlanib chizishi, lozim bo‘lgan taqdirda, u ko‘rgan - kechirganlari va eshitganlarini mubolag‘a bilan tasvirlashi haqida maslahat berishi maqsadga muvofiq.

Ilmiylik prinsipi. Didaktik prinsiplarnint eng asosiyalaridan biri bo‘lib, u fan asoslarini chuqur o‘zlashtirmasdan o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin emaslini bildiradi. Boshqa o‘quv predmetlaridan kabi bu prinsip qalamtasvirdarslarida ham amalga oshiriladi.

Qalamtasviratroy-muhitni his etish, undagi voqealarni o‘ziga xos jihatlarini bilishni talab etadi. Shu boisdan qalamtasvirdarslarida o‘quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug‘soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va hayvonlar-ning plastik anatomiyasi haqida etarlicha ma’lumotlarga ham ega bo‘lishlari lozim. Ixtisoslashgan maktablari dasturida o‘quvchilarning bu qonunlarni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutiladi. Perspektiva qonunlarini o‘zlashtirmasdan realistik tasvir yaratish mumkin emas, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Rassom yoki o‘quvchining rasm chizish uslubi har xil bo‘lishi mumkin, lekin rasm yoki san’at asarlarining qurilishi bir xil, ilmiy asosda bo‘lishi shart.

Perspektiva qonunlari hisoblangan chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqgasi, buyumni bir yoki ikki kuzatish nuqtasi asosida rasmini ishlash, o'lchovlarni o'zgarish perspektivasi, och-to'qlikni o'zgarish perspektivasi, ranglarni o'zgarish perspektivasi, shakl va chegaralardagi aniqlikni kamayishi perspektivasi va boshqalar realistik rasm ishlashga o'rgatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik prinsipi qalamtasviro'qituvchilaridan dars jarayonida va guruhdan tashqari ishlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha material va ma'lumotlar ilmiy bo'lishligini, kollej amaliyotida tekshirilgan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishligini talab etadi.

Tasviriy san'atni o'qitishda san'atning inson xayotidagi rolini tushuna bilish juda muhimdir. Jumladan, sanat ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini nazarda tutish kerak. Qalamtasviro'qituvchisi shuni tushunipsh kerakki, o'quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko'rinishinigina emas, balki uning ma'lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishini ham bilib olishlari talab etiladi. Ko'p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o'quvchilar buyumlarning shaklini to'g'ri tasvirlashda yanglishadilar.

Ko'rgazmalilik prinsipi tasviriy san'atni o'qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

O'qituvchida har doim ham o'rganilayotgan ob'ektni ko'rsatish imkonini bo'lavermaydi, bunday hollarda unga ko'rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni jonlantiradi.

O'quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doim izlanadi, shakllarni solishtiradi, naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, rangi kabilarni bilib oladi. SHubhasiz, bularning hammasi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, o'quvchilarda fikrlash konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushuncha va abstrakt qoidalar ma'lum dalil, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o'quvchilar ongiga oson etib boradi.

Ko‘rgazmalilik qalamtasvirdarslarida boshqa o‘quv predmetlaridagidek yordamchi emas, balki o‘quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o‘ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda qalamtasvirdarslarida ko‘rgazmalilik prinsipining roli juda katta. Masalan, “Keksa ayol portreti” mavzusidagi kompozitsion asarning yaratish uchun ko‘rgazmalilik prinsipi asosida dars mashg‘uloti tashkil qilinadi. Ko‘rgazmali vosita sifatida bir nechta non bozorlari suratga olinib, suratdan eng yaxshi kompozitsion echimga ega bo‘lgani tanlab olinadi va o‘quvchilar diqqatiga havola etiladi.

“Keksa ayol portreti” mavzusidagi dars mashg‘uloti uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

- ✓ Darsning maqsad va vazifalariga mosligi.
- ✓ O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi.
- ✓ Ko‘rgazmaning aniqligi, tushunarli bo‘lishi.
- ✓ Tasvirning sifatli bo‘lishi.
- ✓ Ko‘rgazmalar o‘zining rang-barangligi bilan o‘kuvchilarda zavq va qiziqish uyg‘otishi.
- ✓ Estetiktalablargamosligi.

Rasmlar, asarlarning reproduksiyalari, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni tanlashda quyidagilar e’taborga olinishi kerak:

- Materiallarning g’oyaviyliga.
- Ularning badiiyligi.
- Qalamtasvirdarslarining o‘quv-tarbiya vazifalariga mosligi.
- Bolalar idrokiga mosligi.

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga doir ko‘rgazmali qurollar etarli bo‘lмаган hollarda ularni o‘qituvchilarning o‘zlari tayyorlashlariga to‘g‘ri keladi. Bunda shuni xisobga olish lozimki, hamma ko‘rgazmali qurollar ham foydali

bo‘lavermaydi, ba’zan ayrim ko‘rgazmali qurollar o‘quv va tarbiyaviy ishlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

O‘qituvchi ko‘rgazmali qurdan foydalanish me’yorini bilgandagina u ijobiy natijaga erishishi mumkin. Ko‘rgazmali materiallarning haddan tashqari ko‘p bo‘lishligi o‘quvchilar diqqatini asosiy masaladan chalg‘itadi va natijada asosiy narsa e’tibordan chetda qolishi mumkin. Ko‘rgazmalilikning etarli bo‘lmasligi esa o‘qituvchi tomonidan fikrni chala va yuzaki bo‘lishiga olib keladi.

O‘qitishning samaradorligi ko‘p hollarda o‘kuvchilarning uydagi va darsdagি faolligiga boshiq. Bu faollik xilma-xil bo‘lishi kerak.

Topshiriq yuzasidan mavzuni belgilashda o‘quvchilarning borliqqa bo‘lgan katta qiziqish uyg‘otishni hisobga olish lozim bo‘ladi.

O‘quv jarayonini samarali bo‘lishida solishtirish, taqqoslash, kuzatish va tahlil qilishning ahamiyati katta.

O‘quvchilardan tasviriy san’atga oid atamalarni ongli o‘zlashtirishlarini talab etilishi va ularni buzib ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Rasm chizish jarayonida o‘quvchilarning ba’zi atamalarni o‘zlashtirib olishlarini o‘zi etarli emas, ularga atama-larning kelib chiqishi, ahamiyati haqida ma’lumotlar berish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarga ilmiy tushunchalarini, atamalarni to‘g‘ri ishlatishlariga yordam beradi.

O‘quvchilar hodisalarning bir-biri bilan o‘zaro borliqligini tushunishlari juda muhim. Hodisalarni o‘rganishda ularning rivojlanishini nazarda tutgan holda qarama-qarshilikning sababalarini ham tushuntira olishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilarning faolligini oshirishda maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan muommoli vazifalarni qo‘llash katga yordam beradi. Tadqiqot natijalari va o‘qituvchilarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’atni o‘qitishda o‘zlashtirib bo‘lingan bilim va malakalar ularni faqat tiklashgagina emas, balki yangi materiallarni chuqur anglashga, dunyoqarashga doir xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o‘qitish bilan bog‘lanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantaqiy vazifalarni echishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmet va hodislardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko‘p dalillar ichidan tigshklarini ko‘rsata olish, shakllangan tushunchalardan to‘g‘ri foydalanish,

perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qovdalariga rioya qilish imkonini beradi.

O‘quvchilar ufq chizig‘i, chiziqdi va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to‘liq ilmiy tushunchalarga ega bo‘lishlari kerak.

Diatektik tarzda fikr yuritish formal, mantiqiy fikrlash bilan bog‘liq va unga doimo tayanishni nazarda tutadi. Mantiqiy fikrlash ob’ektiv borliq hodisalar mantiqini aks etgaradi. Qaysiki, unda hamma narsa o‘zaro bog‘liq va aloqadordir.

Atrof-muhitni to‘g‘ri tushunish uchun o‘quvchilar hodisalarning sabablari va oqibatlarini ko‘rib va bilib olishlari kerak. Bu esa dialektik fikrlash va xulosa chiqarishning shakllanishiga ko‘mak beradi.

Bizningcha, o‘qitishda o‘kuvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo‘lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo‘llash lozim.

O‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita o‘quvchilarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emotsiyonallik) bilan bog‘liqsir. Bunda g‘oyalarni chuqur tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda g‘oyalar ichki hissiyotlar tufayli to‘la ongli ravishda harakat orqali yaqqol namoyon bo‘lsin, mustahqamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o‘qish, hikoya qilish, musiqa tinglash, slaydlar ko‘rsatish orqali erishish mumkin. Agar o‘qituvchi voqeа va hodisalarni ta’riflashda ularning go‘zalligi, nafisligi, yoqimliligiga alohida e’tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. SHuningdek, buyumlarning shakli, o‘lchovlaridagi proporsiya birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o‘qituvchidan o‘quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya’ni o‘qituvchi o‘quvchilarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkabliqdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy echimini to‘g‘irlashga ba’zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko‘rsatishiga to‘g‘ri keladi.

O‘qitishning o‘quvchilar yoshiga maosligi prinsipi qadimdan qo‘llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma’lumdan noma’lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyingga, konkretlikdan abstraktlikka prinsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu prinsip qadimdan tajribadan o‘tganligi sababli o‘qituvchini o‘z faoliyatida shu yo‘ldan borishi ko‘zlangan maqsadga erishuviga asos bo‘ladi. Kezi kelganda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, hamma oson narsalar ham o‘quvchilarga tushunarli bo‘lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo‘lishi xam mumkin. Bunda o‘quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Masalan, non bozori bilan bog‘liq asar yaratishda yaqindan uzoqqa borish prinsipida ish tutish maqsadida o‘qituvchi avval o‘quvchilarga yaqin bo‘lgan O‘zbekistonning tabiatni, xalqimizning turmushi, mexnatini tasvirlovchi O‘zbekiston rassomlari asarlarini, so‘ngra O‘rta Osiyo, Sharq, Evropa mamlakatlari sanatini o‘rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan rassomchilik yo‘nalishidagi Ixtisoslashgan maktablarda tasviriy san’atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini bilib olish qiyin emas. Didaktik prinsiplar o‘quvchilarning badiiy ta’limi, tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli shart-sharoitlarni yaratadi.

2.2.O’quv qalamtasvirining maqsad va vazifalari

Qalamtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi.Rassom tasviriy san’at turining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi.U o’zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San’at asarini yaratishda qoralamalar rassomga yordamchi manba bo’lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o’z asarini yetuk holga keltira olmaydi. Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san’at asari ham bo’lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko’plab kartinalar jahonning turli san’at muzeyi va ko’rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg’ulotlari ko’rib-kuzatib to’g’ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo’l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo’lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Uyg’onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinci** “**Rangtasvir qonunlari**” nomli asarida ta’kidlaganidek, *yoshlar o’zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo’lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir ixtisoslashgan maktab o’quvchilariga nazariy va amaliy mashg’ulotlar orqali o’rgatiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy mashg’ulotlar bilan bir qatorda o’quvchilarga nazariy bilim berish g’oyat muhim.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko’nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o’stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san’ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o’rganish narsaning o’ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Tabiatga muhabbat va o’ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to’g’ri tasvirlash kabi fazilatlar tasviriy san’at bilan shug’ullanadigan

har bir talabaga xos bo'lmog'i kerak. Bo'lajak rassomlar tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish muhim ahamiyatga egadir.

Qalamtasvir mashg'ulotlari o'quvchilarga quyidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
4. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
5. Shakllarda yorug'-vasoya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda **analiz vasintez** qilib to'g'ri bajarish.

Bu ko'nikma va malakalar talabaning kasb hunar kollejlari va oliv o'quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olishi vaqtida o'quv mashqlarini bajarishi orqali rivojlanadi va takomillashib boradi.

O'quv qalamtasvirining nazariy asoslari.

Bo'lajak tasviriy san'at ijodkorlarini tayyorlashda qalamtasvir mashg'ulotlarining amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qalamtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi - perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasini borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiqa olmaydi.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash - fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: «Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan-bu yergacha».

Tasviriy san'at, xususan, o'quv qalamtasviri qonun-qoidalari tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga ta'sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabaning qalamtasvir bilimini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stiradi hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab, naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabandan yuqorida bayon etilgan qonun-qoidalalar asosida ish yuritishni talab etadi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichidanoq rasm chizishning asosiy qonunlarini to'la-to'kis egallashi hamda o'tmishdagi buyuk rassomlarning ijodini va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi lozim.

Tasviriy san'at borliqdagi voqeа-hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushbu narsa va buyumlarning ichki mohiyatini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: «Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning «ichki» dunyosini, so'ngra «tashqarisini» o'rganish natijasida amalga oshiriladi.... Buyumning haqiqiy go'zalligini, avvalo, tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvirlash -kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir»².

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo'lsa, chizuvchi uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvirda ilmiy yondoshish, ayniqsa, buyumning chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvirda yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq.Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat mактабини o'tamasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk shogirdlar tarbiyalagan rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov aytganidek, *talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur, so'ngra u naturani o'ziga "bo'ysundirishi" kerak. Rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani oziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim.*

Boshqacha qilib aytganda, rassomning hayoli uni o'rab turgan borliq bilan har doim bog'liq bo'lishi lozim. Ijodkor-rassom biron-bir san'at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil qiladi, so'ngra ularni juda ko'p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi.

O'quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog'liqligini kuzatishimiz mumkin:

- I. Perspektiva - buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.
- II. Plastik anatomiya - inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.
- III. Fizika - buyumlarda yorug' va soyalarining taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umuta'lim maktabida, so'ngra badiiy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirgan bo'lishi hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo'llay olishi zarur. Yuqorida bayon etilganidek, Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlardan unumli foydalanganlar.Buyumlarni haqqoniy tasvirlashda ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda katta.Biron-bir mashhur san'at asari yoki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lsin.O'ziga qarab chizilgan suratni rassom

qanday holatda (ro'paradan, yonidan, o'tirib, yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berish mumkin.

O'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Tasviriy san'at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishini talab etadi. Buyumning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilishimiz shart. Mashhur rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoni tasvirlash uchun tasviriy san'at qonun-qoidalariga rioya qilish g'oyat muhim. Leonardo da Vinci o'zining «Rangtasvir qonuniyatlar» nomli asarida shunday degan edi: «0'quvchi, avvalambor, perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, so'ngra narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi kerak»³.

Buyumlarning konstruktiv tuzilishini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabidan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda, ko'plab maxsus metodik yo'llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda sinch (karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda u ma'lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini qo'yib, yosh rassomlarning chiziqli konstruktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o'rganishlariga yordam bergen. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarning (kub; silindr, konus, prizma va hokzo..) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Tasvir chizishning asosiy qoidalari.

Tasvir chizishning asosiy qoidalaridan biri perspektivadir. Narsaning ko'zatuvchidan uzoqlashgan sari kichrayib ko'rinishi perspektiva hodisasi deyiladi. Masalan, tekis yo'lning o'rtasiga turib kuzatsak, yo'lning oxiri bir nuqtaga tutashgandek qisqarib ko'rindi. Tabiatdagi hamma narsa, gorizont chizig'idagi kuzatish nuqtasi, ya'ni ko'zimizga teng bo'lgan nuqtaga qarab qisqarib boradi.

Har bir narsa boshqa narsadan uzoqda turgan bo'lsa, ko'zimizga kichraib ko'rinadi, tog'lar ham xiralashib ko'rinadi . Unga tushayotgan yorug'lik va soyalar ham yaxlit ko'inishga ega bo'lib, birinchi plandagi narsalardan farq qladi. Har qanday narsani qog'ozga tasvirlash uchun, uning joylashishiga nisbatan ufq chiziqi topib olinadi. Bu chiziq yuqoriga aytganimizdek ko'zimiz balandligiga teng masofadir.

Natyrani tasvirlashda perspektiva qonunlaridan to'g'ri foydalanish muhim shartlaridan biri bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishini ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizontal sathiga va vertikal kartina sirtiga nisbatan holati perspektiva ko'inishiga muvofiq topiladi. Rasm chizishda havo perspektivasiga ham ahamiyat berishimiz zarur. Yaqindagi buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, och – to'qligidan ajralib turadi.

Soya – yorug'likning tasvir tarxiga muvofiq ravishda o'xshatib aks ettirish, ular o'rnini to'g'ri topishga ham bog'liqdir.

Natyrani tasvirlash manzara tasviriga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq. Chunki buyumlar orasidagi masofa qisqaroq bo'lgani uchun uni diqqat bilan kuzatish orqali aniqlanadi.

Tasvir chizishda o'rtacha yumshoqlikdagi TM; M; "2M" rusumli qalamlar, pastel, saus, sangina,pista ko'mirlardan foydalaniladi. Bularning orasida eng ko'p ishlatiladiganini alohida ishga hozirlash kerak. Ularning uchini o'tkir tig' bilan jami bo'lib 30mm, shunda uning grafit qismi 10 mm qilib chiqariladi. Yordamchi chiziqlarni chizishda qalamning yon qismi bilan chiziladi. Shunda yordamchi chiziqlar oq yumshoq o'chirg'ich bilan oson ketadi. Agar qalamning uchi bilan chizilsa, qog'oz yuzidagi chiziqlar o'chmay qoladi.

Inson qomati plastikasini mukkammal o'rganishda inson qo'li va oyoqlarini chizishni o'rganish juda muhimdir. Ko'p yillik ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar inson qo'lini va oyog'ini chizishda ancha qiynaladilar. Shu sababli badiiy ta'lim tizimmidagi o'quv yurtlarida gipsdan yasalgan qo'l va oyoqning tasvirini ishlash o'quv dasturlariga kiritilgan.

Turli davr rassomlari qo'l panjalari tasviriga katta e'tiborni qaratgan. Bu bilan ular insonning fizik va emastional holatini olib berishga erishdilar.

Qo'l panjalari rasmini chizishda har bir kishi uchun alohida o'ziga xos ko'rishga ega ekanligini hisobga olish zarur.

Portretni qo'llari bilan ishslash insonning ijtimoiy holati, yoshi va emotsional xususiyatlarini anglashga yordam beradi. biz yuqorida ta'kidlaganimizdek insonni qo'llari bilan tasvirlashning o'ziga xos plastik xususiyatlarga ega.

Portret chizishda doimo umumiylid dan hususiylikda qarab borish prinsipiga rioya qilish zarur. Rasm chizishda talaba eng asosiy ikki xususiyatni esdan chiqarmasligi zarur. Bulardan birinchisi umumiylid dan hususiylikka, ya'ni detalga o'tish prinsipidir.

Unda chiziladigan naturani eng avvalo detallarsiz, umumiyl shakli to'liq olinib, so'ngra mayda elementlarini ishslashga o'tiladi. Ikkinci prinsipimiz bu hususiyatlikdan, ya'ni detallar ishlovidan so'ng umumiylikka qaytishdir. umiylikda detallar ishslashga o'tilganda har bir bo'lak alohida ishlanadi va yaxlitlanadi.

Ish jarayonida detallar ishloviga e'tibor berilib, yaxlitlikni unutmaslik lozim. Bu prinsipning muhim tomoni ham shundaki, detallarning har biri boshqasiga solishtiriladi, soya- yorug'liklar nisbatlari tekshirilib, hisobga olinadi. Bu tasvirlanayotgan naturaning har bir detali qo'silib, yaxlitlikka o'tishga xizmat qiladi.

O'qituvchi qalam tasvirni vaqtidan oldin detallashtirishdan saqlab qolish uchun o'qituvchilarni ishini kuzatish berishi shart;

Portret janiri inson qiyofasini inson psixologik olami bilan bog`langan xolda aniq bir obrazda yaratilishi portret san`ati deb yuritiladi. Portretda insonning to`la gavdasi yarmi,yoki yuz qiyofasining o`zi ham bo`lishi ham mumkin. Portret yaratish o'ziga hos murakkab jarayon bo`lib,insonning anatomik hususiyatidan tortib ichki ruxiy ma`naviy shuningdek tashqi ko`rinishdagi barcha jihatlarni aks ettirishi bilan san`at darajasidagi asar bo`lishi mumkin.

Darxaqiqat,har bir insonning ichki dunyosi,go`zalligi,tabiat ato etgan andozasi mavjud. Portretchi rassom odamlarga hos turli harakatlarni his qila

bilmog`i ayniqsa odamning qiyofasidagi samimiylit yoki soxta jihatlarni tasvirlay bilish qobilyatlariga ega bo`lishi kerak.Tasviriy san`atning portret janiri insonning ma`naviy qiyofasini o`zida ifodalashi bilan san`atning bo`shqa sohalarida bir munch far qiladi.Portret san`atini yaratishda bebaxo yutuqlarni qo`lga kiritgan buyuk rassomlardan Kamoliddin Behzod Leonardo da Vinchi,Rembrand shuningdek o`zbek rassomlarimizdan Abdulhalq Abdullayev,Chingiz Axmarov va bir qancha rassomlarni misol keltirishimiz mumkin.

O'quvchi gips bo'laklari rasmini chizishda, dastlab odam boshi rasmini chizishga o'tar ekan, o'z ishida juda ko'p qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar shundan iboratki, talaba boshning yoritilishi, soya, yarim soya va tushayotgan soya va tus berish kuchi rasm chizishning hamma seanslari davomida o'zgarmay turganligiga duch keladi. Gips namunalarda talaba shaklni umumiy ko'radi.

XVIII-XIX asrlarning klassik badiiy akademiya ta'lim tizimida odamning gips boshini chizishni maxsus o'rgatishga lozim darajada e'tibor berilgan. Ganch bosh rasmini chizishdan ganch haykal rasmini, undan so'ng esa yalang'och tirik odam qomatini chizishga o'tilgan. Rassomning ganch boshni chizishda olgan bilim va malakasi tirik bosh va portret chizish uchun yetarli, deb hisoblangan.

Bizning badiiy ta'lim tizimimiz ganch bosh rasmini chizishda bosh shakli qurilishining hamma qonuniyatlarini va xususiyatlarini to'liq o'rganishni talab etadi. O'quvchilar ganch modellar rasmini chizganida uning dastlabki asoslarinigina o'zlashtiradilar. Yuqorida aytilganidek, rassom bosh shakli qurilishi qonuniyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi, natura uning butun e'tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo'rqadi va bu natura qurilishining qonuniyatlarini idrok etolmaydi, binobarin, ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilim yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'rtib chiqqan joylari nimaga asoslanganligini bilishi lozim.

A.Dyurer yozganidek: *agar senda haqiqiy asos bo'Imasa, qo'ling erkinlikka erishgani bilan bari bir, hech qanday yaxshi narsa qilishga erisholmaysan. Haqiqiy bilim tufayli esa ancha dadil bo'lasan vaishni mukammalroq bajarasan.*

Rassom gips bosh shaklini chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

- 1) hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishiga erishish;
- 2) rasmda kalla suyagi va mushaklar mutanosibligiga erishish;
- 3) haykal portretining individual xususiyatlarini ochish qoidalari va qonuniyatlariga aniq rioya qilishga majburdir. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi tuzilishi va mushaklarning joylanish qonuniyatlariga rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli individual tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriy san'atning ilmiy qoidalardir. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin.

Yuqorida o'quv akademik rasmning ilmiy asoslari haqida ko'p gapirildi. Ushbu mavzu bundan keyin ham davom ettiriladi. Akademik rasm chizish mohiyati ham shundadir. Ushbu tizimda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ilmiy bilimi uzlucksiz oshib boradi, ta'lim uslubi esa ilmiy yo'nalishda olib boriladi. O'tmishda turli akademiyalarning gullab-yashnash davrida bunga qat'iy rioya qilingan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi ham akademik yo'nalishga asoslangan, shuning uchun ham biz "o'quv rasmi" emas, balki "akademik rasm" atamasini ko'proq qo'llaymiz. O'quv rasmi modernistlarda ham bor, ular ham boshlovchi rassomlarga o'z san'atini o'rgatadilar va ularni shunga tayyorlaydilar. "O'quv rasmi" tushunchasi san'atdagi har qanday tendensiya va qarashlarni qamrab olishi mumkin. "Akademik rasm" tushunchasi realistik san'at prinsiplari va uslublarini nazarda

tutadiki, unda har bir vazifa ilmiy-nazariy asosga ega bo'ladi, ta'lim esa ma'lum tizimga bo'ysunadi.

Akademik ta'lim tizimi G'arbiy Yevropa, rus va o'zbek milliy realistik san'atining eng yaxshi an'analariga, hozirgi zamon pedagogika va psixologiyasiga asoslanadi. Akademik ta'lim yosh rassom oldida borliq hodisalarining go'zalligi va betakrorligini namoyon etishda moddiy borliqning ob'ektiv qonunlarini ochadi. Bularning hammasi tabiatning eng go'zal mahsuli - inson qiyofasi, xususan, odam boshini tasvirlashga ham bevosita aloqadordir.

Tabiiyki, talaba dastavval, odam boshi shakli qurilishi sxemasini tushunishi va eslab qolishi, ularni amaliyatda qo'llashi kerak. Taklif qilinadigan sxemalar va shaklni tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini chizish, hatto, o'quv paytida ham ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham u keyinchalik yosh rassomga o'z shaxsiy ish usullarini topish imkonini beradi. Biroq har qanday holda ham, dastlab, bosh shaklining konstruktiv-anatomik tuzilishini, ya'ni odam boshi anatomiyasini mukammal o'rganish kerak.

O'quvchi plastik anatomiyani o'rganar ekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, fikr yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib etishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va umumlashmalar chiqarib, ba'zi mushak shakllarining o'zgarishi qoidalari va me'yorlarini bilib boradi. Insonni bunday chuqr ilmiy o'rganishda Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning rasmlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Leonardo da Vinchi rasmlarida biz nafaqat tashqi mushaklarni, balki chuqr mushaklarni ham ko'ramiz. O'tmishdagi buyuk ustalar inson tanasining va bosh tuzilishining anatomik qurilishini diqqat bilan o'rganganlar va suyaklar, mushaklar, paylarning, jumladan, angiologiyaning (qon tomirlarining joylashishini o'rganuvchi fan) asosiy xususiyatlarini eslab qolganlar. Bu bilim rassomlarni kasb mahorati cho'qqilariga yetaklagan.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning hammasi naturadan rasm chizishda chuqr ilmiy bilim talab etilishidan dalolatdir. Talaba naturani o'rgana borib, jiddiy ilmiy ma'lumotlarga tayanib, suyak va mushaklar qurilishining umumiyl uyg'unlashuvini tushuna boshlaydi.

2.3. Qalamtasvirdan “Keksa ayol kishi” portretini chizish bosqichlar.

Oldin aytib o'tilganidek, tasvirlash jarayonini alohida bosqichlarga bo'lish shartli bir holdir. Bu rassomga faqat o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirib olishi uchun zarur. Quyida portret chizishning to'rtta bosqichiga bo'lib o'rghanish tavsiya etiladi:

- 1) tasvirning kompozitsioh joylashishi, bosh shaklining umumiylar xarakterini, shuningdek, qismlar va umumiylar shaklining proporsional nisbatlarini belgilab olish;
- 2) bosh shakli anatomik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan holda chiziqli-konstruktiv tasvirlash;
- 3) tus munosabatlarini hal etish orqali shaklni detalli chizib chiqish;
- 4) material xususiyatini ochib berish va ishga yakun yasash -umumlashtirish.

Birinchi bosqich. Qog'oz yuzasida tasvirni kompozitsiyaviy joylashtirish, bosh, shaklining umumiylar xarakteri va proporsiyalarini belgilash.

Bosqichli rasm chizishga kirishishdan oldin naturani har tarafidan kuzatish va xarakterli xususiyatlarini belgilash, eng qiziqarli nuqtani tanlash va ushbu nuqtadan rasm qanday ko'rinish kasb etishini tasavvur qilib olish zarur. Buning uchun turli nuqtalardan turib qator kompozitsion qalam chizgilar chizish, bu nuqtalardan eng ma'qulini tanlash lozim. Bu narsa shuning uchun qilinadiki, rasm ishslash jarayonida birdaniga tanlagan joydan "sovib" qolish mumkin.

O'quvchilar, odatda, naturaning ifodali turishining o'zidanoq ilhomlanib ketadilar va darhol kompozitsion vazifa hal etildi, endi uni faqat mexanik tarzda, ko'zga qanday ko'rinyotgan bo'lsa - shundayligicha qog'ozga tushirish qoldi, deb hisoblaydilar. Lekin natura obrazli, juda yorqin va ifodali bo'lishi bilan birga, tasvirda uning ko'rinishi yetarli darajada ishonchli chiqmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham rassomga asosiy massa, bosh silueti, yuz tuzilishi, soch va ko'zlar go'zalligini ko'rish va his qila bilish juda muhimdir. Ushbu modeldan kompozitsion chizgilar chizishda talaba, avvalo, eng ifodali ko'rinishni tanlab olish kerak. Qulay nuqta tanlab olingandan keyin rasm chizishga kirishiladi.

Avvalo, qalamni qog'oz ustida yengjlgina, bosmasdan harakatlantirib, naturaning kompozitsion tuzilishini hal qila borib, bosh, gavda, qo'llarning umumiy shakllari belgilab olinadi. Kompozitsion yechim ustida ishlayotib, bir yo'la bosh sxematik tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Tasvir qog'oz ustida joylashtirilib bo'lingandan so'ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishini (holatini), uning bo'yin va yelka kengligi bilan birikishi aniqlab olinadi.

Geometrik shakllar, jumladan kubni tasvirlashda bo'lgani kabi, boshrasmini chizishni uning katta shaklining konstruktiv asosini ochishdan boshlash kerak.

Boshning old va yon qismlarini chiziqlar bilan belgilab olingandan so'ng, unga profil chizig'i qo'yiladi va naturaga qarab, uning yo'nalishini tekshirib olinadi. Shundan so'ng old qismdagi burun, lab, ko'zlar joylashgan o'rirlari aniqlanadi. Profil chizig'i yordamida alohida qismlar, yaxlitlik hamda boshning umumiy shakli ko'rinishi proporsional nisbatlarni ham aniqlab olish mumkin.

O'quvchilar boshni tasvirlayotganda qurish sxemalari va proporsiya qonunlaridan unumli foydalanadilar.

Ikkinch bosqich - perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh chiziqli - konstruktiv tasvirlash.

Umuman, bosh, va uning bo'laklarini chiziqli - konstruktiv tasvirlashga o'tayotganda hajm qanday tashkil topishini ko'rgazmali ravishda ko'rsatishga harakat qilinadi.

Har bir yuza har xil yoritilgan. Shu yuzalarni yengil chiziqlar bilan ifodalab, butun bosh shakli, va uning bo'laklarini ham to'g'ri va ishonchli tasvirlash mumkin.

Bosh shaklini chizishda shaklining konstruktiv asosini ochib berib, bir yo'la kalla suyaklari bilan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish lozim. Gardan suyagi oldinga turtib chiqqan, bosh usti chiqiqlari peshona bukrilariga nisbatan biroz keng, yonoq suyagi o'simtalari yaxshi rivojlangan va yonoq suyaklari ancha oldinga turtib chiqqan, pastki jag' keng, kalla suyagi qutisi suyaklar bilan zichlashib ketgan. Shaklni bunday tahlil qilish rassomga boshning xarakterini

to'g'ri ochib berish imkonini beradi. Shaklni yuzada oddiydan - murakkabga prinsipi asosida tasvirlashda katta shaklni tasvirlashdan detalli tus berishgacha bo'lgan jarayonlarda, umuman, boshni va alohida detallarni (burun, lab, ko'z, qo'llarlarni) tahlil qilishda ham mavjud qoidalarga so'zsiz rioya qilish kerak.

Ko'z, qulq, burun, lablar shakliga aniqlik krita borib, doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib turish lozim. Har bir bo'lak bir-biri bilan uyg'unlashgan chog'ida maqsadga erishiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik burun, qosh usti chiqiqlari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashturuvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

O'xshashlikni ochib berish uchun rassom ko'zlarning joylashish xarakterini diqqat bilan kuzatishi zarur. Ko'zlar shunday joylashishi kerakki, unda ichki (ko'z yoshi qopchig'i) va tashqi burchaklar gorizontal chiziqda tursin; bu holni Yevropa irqiga xos kishilarda kuzatish mumkin. Ko'zlar shunday joylashishi mumkinki, unda ichki burchaklar (ko'z yoshi qopchig'i) tashqi burchaklardan pastroqda bo'ladi, bu holni mo'g'ul irqiga oid kishilarda kuzatish mumkin. Lekin ko'zlar shunday ham joylashgan bo'lishi mumkinki, unda ichki burchaklar tashqi burchaklardan yuqoriroq turadi

Rasmni chizishni uning katta shaklining konstruktiv asosini ochishdan boshlash kerak.

Boshning old va yon qismlarini holatlarini chiziqlar bilan belgilab olingandan so'ng, unga profil chizig'i qo'yiladi va naturaga qarab tekshirib olish zarur.

Shundan so'ng old qismdagi burun, lab, ko'z joylashgan o'rinalar aniqlanadi. Profil chizig'i yordamida alohida qismlar, yaxlitlik hamda bosh, umumi shakli ko'rinishi proporsional nisbatlarni ham aniqlab olish mumkin.

Uchinchi bosqich - tus berib shaklni detallashtirish.

Shaklni detallashtirishdan oldin ish bosqichlarining to'g'ri hal etilganligini yana bir bor tekshirib chiqiladi. Shaklning umumi ko'rinishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-asta tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalar belgilab chiqiladi. Bu esa bosh hamda umumi shaklini yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish

imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiylar shakldan kelib chiqqan holda, yuz bo'laklariga o'tish mumkin. Alovida bo'laklarga aniqlik krita borib, shakl tuzilishi qonuniyatlariga e'tibor beriladi.

Masalan, ko'zlar rasmini chizayotganda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'z soqqasining old bo'rtmasini muguz parda tashkil etadi, uning orqasida markazdag'i ko'z qorachig'i bilan rangdor qoplama turadi. Ko'pchilik o'quvchilar ko'z qorachig'ini o'rtasida qora doira bo'lgan yassi disk sifatida tasvirlaydilar. Bu noto'g'ri. Qorachiqli rangdor qoplama yassi emas, balki qabariq shaklga ega. Ko'z soqqasini qovoqlar yopib turadi.

Ko'z bir tomonga qaraganda muguz qabarig'i yuqori qovoqlarni ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa o'sha yoqqa buradi. Shuning uchun yuqori qovoqlarni chizayotganda uning tashqi va ichki tomonlariga e'tibor beriladi. Ushbu misolda naturachining nigohi o'ngga va biroz yuqoriga qaragan. Ko'z shaklini detalini chizib chiqishda yorug'likning taqsimlanish qonuniyatiarini ham yoddan chiqarmaslik zarur. Oddiy sharoitda yorug'lik yuqoridan tushadi va yuqori qovoq qalinligi soyada, pastkisi esa yorug'likda qoladi. O'quvchilar, odatda yuqori qovoqning pastki yuzasini va pastki qovoq qalinligini bir xilda tuslaydilar, ba'zan esa qovoqlar qalinligini faqat chiziqlar bilan berib, umuman, ko'rsatmaydilar. Pastki qovoqni, ayniqla, portret o'xshashligiga erishayotgan paytda juda ehtiyyotkorlik bilan, qalamni qog'ozga tegar-tegmas qilib chizish kerak. Qoshlar rasmini chizishga jiddiy e'tibor beriladi.

Qoshlar xilma-xil: keng, tor, qalamqosh, baroqqosh, tekis, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi mumkin. Portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning to'g'ri yoritilishiga bog'liq. Ushbu vazifada naturachining qoshlari quyuq, ko'zlari ustida osilib turibdi.

Odamning boshini tasvirlash jarayonida shaklni detalli ishslash, detallarni umumlashtira olish rasmning badiiy ifodali chiqishiga yordam beradi. Detalni ishslash rasmning ifodali chiqishini ta'minlaydi. Ishning ushbu bosqichida bosh shakli va uning detallariga aniqlik krita borib, bir yo'la tus berishga ham asos tayyorlashning kerak.

Akademik rasmida nafaqat shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodalili chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodalilik tus berish vazifasi qanchalik to'g'ri hal etilganligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ko'pchilik o'quvchilar "**tus**" atamasini noto'g'ri talqin qiladilar. Bu atama ustida biroz to'xtalib o'tish lozim.

"*Tus*" (*ton*) grekcha "*tonos*" so'zidan olingan bo'lib, u "*kuchlanish*" degan ma'noni anglatadi. **Tus** (*ton*) - yorug'likning fizik xarakteristikasidir. "*Tus*" deyilganda bir yorug'lik manbaidan predmet yuzasiga tushgan yorug'likning miqdori va sifatini hamda predmet rangini tushunamiz. Predmetning alohida yuzalari yoritilishining o'zgarishi ularning yorug'lik manbaiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog'liq. Tus yorug'lik manbaining xarakteri (tabiiy - quyosh, oy nuri; sun'iy - elektr lampochkasi, sham) va yorug'lik tushayotgan predmet rangi bilan o'lchanadi.

Yorug'lik (nur) jism yuzasiga tushar ekan, u tus kuchini belgilaydi. Yuzalarning yorug'lik manbaiga nisbatan holatiga qarab, tus xarakteristikasi ham o'zgaradi. Rasm chizuvchilar, ayniqsa, tirik odam boshi rasmini chizishdek murakkab vazifani bajarishda ko'p chalkashadilar. Ular bosh shakliga tus berayotganlarida nur-soya gradatsiyasini, binobarin, hajmning yorishganlik darajasini ilg'ab olomaydilar. Masalan, ular qora sochlarni tasvirlayotganlarida bu sochlarni darhol bir tekis, bir xil rangga bo'yab qo'yadilar va qayerda soya, qayerda yarim soya va qayerda yorug' bo'lishini ko'rsatmaydilar. Vaholanki, qora sochlarga tushgan yorugiik xuddi, aytaylik, burun uchiga tushgan yorugiik kabi bo'lishi mumkin.

Juda ko'p hollarda naturani uzoq vaqt davomida tasvirlash natijasida o'quvchida his etish (qabul qilish) jo'shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko'chirishga va chizayotgan rasmini "bo'yab tashlashga" o'tadi. Ushbu kamchilikning oldini olish uchun P.Chistyakovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tamiz: "Detal ustida uzoq ishslash kerak emas, chunki qabul qilish (his etish) jo'shqinligi yo'qola boshlaydi. Undan ko'ra boshqa, yon-atrofdagi qismni chizishga

o'tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylarni ko'rish oson bo'ladi".

To'rtinchi bosqich - materiallikni hal etish va ishga yakun yasashumtimlashtirish.

Ishning bu bosqichi eng qiyin va davomlidir. Bunda o'quvchi vazifani ma'lum tugallikka yetkazishi, o'quv materialini qanday o'zlashtirib olganligi bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon etishi kerak. O'quvchi natura shakliga tus berishda bir yo'la uning materiallik tomonini ham ochib tuslay olsa, rasmning ifodaliligi yanada ortadi.

Oxirgi bosqichda qilingan ishga umumiyligi yakun yasash kerak. Shu yerning o'zida tasvirning holatini tez-tez tekshirib borish lozim. Qilingan ishda yakun yasash bosh nisbatlari, shakl xarakteri, hajm ifodasining isihonchliligi va tus berish nisbatlarining to'g'ri ekanligini tekshirishdan boshlanadi.

Eng avvalo, ramming uyg'unlashuvini tekshirish kerak. Shaklni detalni ishslash jarayonida siz rasmni surib yuborgan bo'lisingiz, detallarning o'zaro bog'lanishi yo'qolgan, shaklga tus berish anatomik tuzilishiga putur yetgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, biror joyda unga yangidan chizgi ish, kontur bo'yicha esa ifodani bo'rttiruvchi chiziq tortish kerak bo'lar. Shuningdek, har bir detal shakli xarakterini fekshirib chiqish zarur, chunki ular nafaqat bosh shaklining umumiyligi tuzilishini to'g'ri tasvirlash uchun, balki odamning obrazli xarakteristikasini bo'rttirib ko'rsatish uchun ham kerak.

Shundan so'ng tus berish vazifasi to'g'ri hal etilganligini tekshirish ak. Bu o'rinda naturada eng to'q va eng yorug' joylarni belgilab cniqish, ularni yarim soyaga taqqoslagan holda tasvirni umumiylikka keltirish lozim. Detallarni ishslash darajasiga alohida e'tibor berish zarur.

Bosh shakli qismlarini ishslash paytida uning umumiyligi –uyg'unligiga putur etkazib qo'yish mumkin. Masalan, quloiq juda ham qiyin, peshona qism haddan tashqari serajin va qoraytirib yuborilgan, lar bir-biridan keskin ajralib qolgan bo'lishi mumkin va hokazo. Unday yuz bermasligi uchun ishning yakunlovchi bosqichini amalga oshirish kerakki, bunda boshning qismlari yagona

butunlikka erishiladi. Tasviriy san'at qonun-qoidalariga ko'ra uzoq plandagi detallarga kamroq, yaqin plandagilarga esa ko'proq ishlov berilishi lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda bo'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar hosil qilmasligi, uzoq plandagi yorug'lik va soya kontrastlari inga "chiqib" qolmasligini tekshirib olish kerak. Bunday hatolarni oson ilg'ab olish uchun tasvirga ko'proq uzoqroqdan turib qarash kerakboshni ishlashning metodik ketma-ketligiga yakunyasalayotganda shu narsa esdan chiqarilmasligi kerakki, ishning har birchizig'iga yetarli darajada vaqt ajratilishi kerak.

Tasvirlashning metodik ketma-ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga uzluksiz, har bir bosqich alohida qanday hal etilishini bilgan holda ishonch bilan ishslash imkoniyatini beradi. Rasm ishslashda amaliy tajribasi bo'lgan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega boia boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga, ba'zilar o'ylagandek, har kim o'z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvirlash jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina ega bo'lish mumkin. Odam boshidan muntazam ravishda xomaki rasm va chizgilar qilish zarur. Bunday xomaki rasmlar odamning butun tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, shuningdek, hayotni real tasvirlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Realist rassom insonning barcha go'zalliklarini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm chizish talabani yordamchi chiziqlar, o'q chizig'i, konstruktiv asoslар yordamida tasvirlashga majbur etadi. Talaba davomli o'quv rasmida asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvirlash qonuniyatları va qoidalariga qaratadi. O'quv-akademik rasm chizishda talaba bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm turli yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasmi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish uchun chiziladi. Ijodiy rasm esa, olingan bilim va ko'nikmadan badiiy obraz yaratish uchun chiziladi. Shuningdek, talaba avval olgan bilim va malakasi asosida yangilik yaratadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quv rasmining ijodiy jihatni ham bor. Xomaki rasm ham olingan bilim va malaka asosida yaratiladi. Xomaki rasmida talabandan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilalar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ulaning vazifasi, maqsad va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab olish kerak. Ko'pincha "xomaki" tushunchasini rasm ustida ishslashning birinchi bosqichi - shaklning chiziqli konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboradilar.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar davomiylidka, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo bo'lishi mumkin.

Xomaki rasm-bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, uncha muhim bo'limgan narsalarini chetga chiqarib tashlab, e'tiborni asosiy narsaga qaratadi. Xomaki rasmlar talabaning mustaqil ishga tayyorgarlik darajasini namoyon etadi. Xomaki rasmlar talabani tasvir qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi buyuk rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlari ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv-akademik rasm chizishda xomaki rasmlardan ma'lum o'quv-ta'limiylar va tarbiyaviy maqsad ko'zlanadi: maqsad avval olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda boshlovchi rassomni mustaqil ishslashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish - tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - avval olingan bilim asosida natura bilan buyum haqida mantiqiy fikrlashdir. Talaba xomaki rasm chizish davomida ushbu natura, uning shakl qurilishi, konstruktiv tuzilishi, anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zaxirasidan foydalanadi.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz bu ish samarasiz bo'ladi. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirishni, ma'lum bir uslubiy bosqichlarni

taqozo etadi. Birinchi kurs o'quvchilari uchun ancha yengil, yuqori kursdagilarga esa murakkab o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyani beradi. Birorta rassom yo'qki,xomaki rasm chizish uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsin.

O'tmishdagi mashhur rassomlar o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor bergenlar. Italiya rassomi Chennino Chennini o'zining' "Rangtasvir haqida asar" kitobida shunday yozgan edi: *Doimo, biror tunni kanda qilmay, biror-bir narsaning rasmini chiz; bu senga juda katta foyda keltiradi*. Hayotda biz bir-biriga aynan o'xshash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni ilg'ab olish, ushbu odamning o'zgacha xususiyatini topa olishdan iborat. Shuning uchun ham ko'proq kuzatilasi, ko'proq naturadan rasm chiziladi, muntazam ravishda xomaki chizgilar qilinadi. Odam bosh rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Odam gips boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga - ijodiy portret yaratishga o'tish mumkin.

II bob bo'yicha xulosalar.

Ushbu bobda ixtisoslashgan maktablar qalamtasvir darslarida portret kompozitsiyasini yaratishning amaliy asoslari o'rganildi.

Shuningdek portret janrda rasm ishlash bo'yicha qalamtasvir fanidan darsni tashkil qilish prinsiplari ishlab chiqildi.

Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir fanidan yetarlicha bilim beriladi. Bu fan o'zining portret janrda rasm ishlash mavzusini o'qitish metodikasi deganda ta'lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l va uslublar yig'indisi tushuniladi. Shuning uchun mashgulotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish prinsiplari ishlab chiqildi.

O'quv qalamtasvirining maqsad va vazifalari o'rganildi. O'quv qalamtasviriga qo'yilgan talablar yoritib berildi.

Qalamtasvirdan "Keksa ayol kishi" portretini chizish bosqichlar ketma ketligi nazariy jihatdan yoritib berildi. Shuningdek xomaki rasmlarni bajarish tartibi va ularning ahamiyati yoritildi.

Umumiy xulosalar.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida ixtisoslashgan maktablar qalamtasvirdarslarida o'quvchilarni portret janrda rasm ishlashga o'rgatishning nazariy asoslari, hamda ushbu bitiruv malakaviy ishi yuzasidan adabiyotlar o'rganildi. Tegishli adabiyotlarda mavzu haqida bildirilgan fikirlar o'rganilib ular haqida mulohazalar yuritildi.

Mustaqillik davri portretchilik san'ati haqida fikirlar bayon qilindi. Yurtimizda yashab ijod qiligan va ijod qilib kelayotgan portretchi rassomlar hayoti va ijodiy faoliyati o'rganildi. Yurtimizda portretchilik san'atining rivojlanishi va mustaqillik davri portretnavislik san'ati haqida ma'lumotlar berildi.

Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirida portret janrida ishlangan asarlarnin tahlil qilishning ahamiyati o'rganildi. Yuksak portretchilik san'ati namunalari tahlil qilindi.

Ushbu bobda ixtisoslashgan maktablar qalamtasvir darslarida portret kompozitsiyasini yaratishning amaliy asoslari o'rganildi.

Shuningdek portret janrda rasm ishlash bo'yicha qalamtasvir fanidan darsni tashkil qilish prinsiplari ishlab chiqildi.

Ixtisoslashgan maktablarda qalamtasvir fanidan yetarlicha bilim beriladi. Bu fan o'zining portret janrda rasm ishlash mavzusini o'qitish metodikasi deganda ta'lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l va uslublar yig'indisi tushuniladi. Shuning uchun mashgulotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish prinsiplari ishlab chiqildi.

O'quv qalamtasvirining maqsad va vazifalari o'rganildi. O'quv qalamtasviriga qo'yilgan talablar yoritib berildi.

Qalamtasvirdan "Keksa ayol kishi" portretini chizish bosqichlar ketma ketligi nazariy jihatdan yoritib berildi.

Atamalarning izohli lug'ati

Akademizim-(fracademisme so'zidan olingan) XIX-XIX asr badiiy akademiyalardavujudgakelganvamumtozsan'atiningtashqishakillarigaqt'iy ergashishgaasoslanganyo'naliш.Akademizimbadiiyta'limotnitizimgasolib, mumtoz an'analarnimustahkamlashga yordamberadi.

Badiylik-Borliqniinsonvauninghayotidagivoqealarni,kechinmalarinio'zoro o'xshatish,shakillantirish va rang-barang tasvirlash.

Galeriya-Tasviriyva amaliysan'atasarlar saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan mahsus bino.

Grafika-(yunoncha-graphika,grpho-yozaman,chizamanso'zidanolangan).O'zida chizmatasvirvabosmauslubdaishlanganasarlarnimujassametgantasviriyasan'at ko'rinishi.

Dastgohlisan'at-Tasviriyasan'atningbirturi.Bo'lajaksan'atasarlarimaxsus dastgohlarga o'rnatilib ishlashusuli.

Dizayn-Maishiyyurmushda ishlatiladiganjihozlar,uyasbop-anjomlarivashunga o'xshashnarsalarga chiroylishakilberadiganrangniyatishsan'ati.

Janr-san'at asari turi. Ba'zidahayotlovhalarinitasvirlobchiasardebhataladi.

Ikona-(yunoneiko-tasvir qiyofa) xiristiyon dinida Iso payg'ambar,BibiMariyam, avliyolar, muqaddasyozuvsahnalariningtasvirlanishi.

Ilyustiratsiya-(lotaniqtasvirdegan)birormatinniteksnitol'diribboruvchi yoritishni,mazmunnitushuntirishdayordamberuvchitasvir.Badiiyvailmiy asarlarning tsviriyizohi, talqini.

Imperessionizm-(Impression-ta'ssurotxayotso'zidanalingan)XIXasirning70-yillarida Fransiyatasviriyasan'atidapaydobo'lzanoqimgamansub,Mone, Pikasso,Renuarkabirassomlartabiatvahayotdanolgantasavvurlariniifodaetib, shu yo'naliшga asossolganlar.

Klassiksan'at-Mumtozsan'at.

Lessirofka- Sayqallash,pardozlash uchuntayyorlangan qoplam.

Mastixin-po'latdanyasalgankurakchayokipichoqchashaklidagiingichka plastina,rangtasvirvositalaridan biri.

Modernizm-(fr.Modernisme-zamonaviyso'zidanolangan).XXasrsan'atidagi

badiiyoqimlarning umumiylar nomlanishi.

Natura-Rassomtasvirlaydigan borliqdagi ob'ekt; inson, narsalar, manzara v.h. k.

Panarama-180gradusdayoysimondoirako'rinishidaishlanganrangtasvir.

Muhimtarixiyvoqealar, jangmanzaralarniifodalaydi.

Plener-(t.Pleinochiqhavo).Kartinadaquyoshyorug'ligi,atrofdagimuhitning tasiribilanbog'liqbo'lganranglarturlanishinianglatadigantermikochiqhvoda ishlash.

Rakurs-(itroccourci). Tasvirlanayotgan narsalarningperspektifqisqarishi.**Realizm**-(lotreflexus-orqagaqaytarilgan,aksetgan).Reflekstevarakatrofning tasirida ulardan tushayotganyorug'lik aksinatijasida hosil bo'ladi.

Refleks-(iot.Reflexus–orqaga qaytarilgan,aksetgan.).Refleks tevarak atrofining ta'siri, ulardan tushayotgan yorug'likaksinatijasida hosil bo'ladi.

San'at-arabchaatamabo'lib,hodisalarnibadiiyobrozlitarzdaaksettiruvchi ma'naviymadaniyatningtarkibiyqismi.Utasviriyamaliysan'at,memorchilik musiqa,teatr,kino, badiiyadabiyot, televdennyianio'z ichiga oladi.

Tripitix-(yunonchatriptychos-ustalik,uchmartatahlanganma'nonianglatadi).Bir mavzuga bog'liq bo'lgan uch qisdaniborat san'at asari.

Faktura-Rassomishlaydiganmatiralningtashqiko'rinishi,sathi,uningyumshoq, qattiq, yaltiroqligi.

Formalizm-Asarningmzmuniganisbatonshakligabadiiyvatasviriybositalarga etibor berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUUXATI:

1. I.A.Karimov. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ”. Toshkent “O’zbekiston ”.1997 yil
2. I.Karimov. “Barkamol avlod –O’zbekiston taraqiyotining poydevori“. Toshkent. 1997 yil
3. I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” .Toshkent 2008 yil.
4. R. Hasanov. “Maktabda tasviriy san’atni o’qitish metodikasi” T-“Fan” 2004 yil
5. I.Raxmonov “Perspektiva” Toshkent “O’qituvchi” nashriyoti 1993 yil.
6. T.Qo’ziyev, E.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov “Rangtasvir” “San’at” jurnali nashriyoti Toshkent-2003 yil.
7. A. Egamberdiyev, S.Saidova, R.Rajabov “Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixi” “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 yil.
8. B. Boymetov. “Qalamtasvir” Toshkent “ILM-ZIYO” nashriyoti 2007 yil.
9. O.mo’ynov “Rangtasvir” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi 2007 yil.
10. G’.A. Artiqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi 2007 yil.
11. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti Toshkent-2009 yil.
12. R. Hasanov “Tasviriy san’at asoslari” G’.Gulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.
13. S. Abdurasilov, N.Tolipov,
N.Oripova.“Rangtasvir”Toshkent.“O’zbekiston”, 2006.
14. N. Abdullayev San'at tarixi. T-1987 y.

15. B. Jabbarov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati.
N-2001 y
16. N.Normatova Tasviriy san'at atamalari lug'ati. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi. T-1998 y.
17. B. Tojiboyev. Rangtasvir fanidan ma'ruzalar matni. T-2000 y.
18. A. Umarov. M. Axmedov. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati T-1997y.
19. N. Abdullayev. San'at tarixi. T-2001 y.
20. M. Nabiyev. Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi. T-1995y
21. Internetmalumotlari. www.arxiv.uz

ILOVALAR.

